

Uchinchi Bo'lim - Judolik Zori (Yoxud Diyordi Qiyomatga Qolgayimi?)

Tavakkalchini Xudo asrar

Men hech yerga sigibmasdim.

O'tgan ikki kun ikki yilga cho'zildiyov!

Uchinchi kun shanba edi. Demak, erta o'tib, indinga taqdirim hal bo'ladi: yo ketaman, yo biron past ishga surorishadi. Harqalay, ayab o'tirishmaydi.

Qarangki, men qilmishimdan pushmonga tushish o'rniga turib-turib allaqanday g'b'burur tuyib ketmoqda edim:

"Zab qilibmanmi, qaytarib berib?!"

Men kimga tortdim, oyimlargami yo... Sulton akamgasib" o'zim tushunib yetolmasdim.

Harqalay mendant To'ram taqsir yoki akamga o'xshagan hukumatlarga ham bo'y bermaydigan bir odam chiqmasa-da, so'zimda tura olayotganim, Vatanini sogibbingan bir vatanjudoga qayishib, uni hamma qatori so'kib-netib, "o'lgani" ustiga tepmayotganim o'zimga yoqib tushmoqda edi. Mana shu g'b'burur bo'lsa kerak. Demak, g'b'bururinga qarshi bir ish qilgim kelmapti. Bundan xursand bo'lish kerak-ku, axir!

Ammo shu tobning o'zida menga alam qilayotgan joyi ham yo'q emasdi. Men o'rtamiyona bir mirzo bo'lsam - boshqa gap edi.

Boshqa sohadan kelib ham, topshiriqlarni o'rinnatib ado etib yuribman-ku. Birovdan tilim qisiq joyi yo'q. Shundaki biz mirzolarning qadri shu bo'lsa, kim ekanmiz biz? Buzoqning yugurgani somonxonagacha deganlaridek nihoyati yugurdak mirzo ekanmizmi biz?..

Turib-turib endi menga nasha qilmoqda edi! Nega o'sha gap chiqqan kuniyoq ariza yozib, kiritib yubora qolmadim? Nimaga umid tutdim? Biron insofli odam chiqib, yonimga tushishigami? Himoya etishigami?

Qachon Xudoga tavakkal qilishni o'rganamiz?! Peshonamdan ko'rdim, taqdirning yozmishidan ortiq nima bo'lardi, deya olsam-ku - olam guliston edi! Qutulardim shu mashmashalardan! O'sha kuni bosh muharrir oldida andesha saqlab jim turaverGANIM kelib-kelib endi o'zimga ta'sir qilmoqda edi. Nega bunday qildim? Rostini aytib, qahriga yo'liqqim kelmadimi yo? Ishqilib xokisor bir qiyofada jim yer chizib turganim yodimga tushib, o'z-o'zimdan g'b'ijinib bormoqda edim.

Mening o'nimda akam nima qilardi?! Uzr so'rab yo yalinib o'tirarmidi? Hech qachon! Men esam, imillardim. Shart kesolmadim! Menga mana shu mezon, akamni o'z o'nimga qo'yib ko'rishim - qarangki, yoqib tushmoqda, bundan o'zgacha bir g'b'burur tuyib ketmoqda edim.

Uyga sigibmay do'konning qorovulkxonasiqa chiqib borsam, shaxmatchilarining zo'rлari Rasulbek akanikiga to'y kelishi munosabati bilan yigibtilishib qolishgan ekan. Birin-sirin "Assalomu alaykum"lab chiqib kela boshlashdi. Jang toza qizidi, lekin hech kim meni o'tirgan joyimdan siljita olmasdi.

- Bu kimming alamini bizdan olyapti? Hammani pista po'choqdek chaqib tashladi-ku, a? Birortang Shukrulloni chaqirib chiqsalaring-chi! - deb qolishdi.

- Shu turishimda Fisherni opkelsangizam qoqib tashlayman! Mirzolikni tashlab, o'zimni shu o'yinga bagb'ishlasammi, deb turibman-ku, - dedim yarim hazil, yarim chini bilan.

- Tagibin Gorkiy bogib Tiga tanda qo'yib yurmagin, bor bisotingni shilib olishadi-ya, - dedi kimdir.

- Qimordan Xudo asrasin, - deb sekin tura boshladim. - Izzatim borida o'zim joy bo'shata qolay. Qo'l bir kelib qoldi-da, akalar, - deb siperishladim. Aslida ishxonadagi anuv mashmasha yana yodimga tushib, kayfiyatim buzila boshlagan, o'zim bu yerdan ham jilishga bahona izlar edim.

Qorovulkxona hujrasida shuncha qolib ketibman, qaytib kelsam, vaqt peshindan ogib, hovlida kir yuvib o'tirgan kennoyimdan bo'lak hech kim ko'rinas, hammayoq yer yutgandek jimjit edi.

Qorin ham piyozni po'sti bo'lib ketgan ekan, sich-qonni inida qolgan qattiq non ham shirin ko'rini, u uydan bunisiga chiqib yursam, kennoyim oshxonadan ustiga talinka yopib, sochiqqa o'ralgan kosa ko'tarib kela boshladilar.

- Ovqatiz bu yoqda edu, Maqsudxon. Kelavurmadi-kelavurmadi, sochiqqa o'rab qo'yup edum, kelung, - dedilar dasturxon yozib.

- Rahmat, bular qani? - dedim ichkariga ishora etib.

Kennoyim nimagadir aytishga istihola qilib, yerga qaradilar:

- Kutup-kutup, ketishdu.

- Qayoqqa ketishadi? Hech gap yo'q edi-ku, boyta? - deya oldim.

- Siznu orqangizdanoq odam kelub edu.

- Odam?.. Nega keladi? - dedim hayron qolib.

Kennoyim yamlandilar:

- O'sha o'zib bila ishlaydukan anuv kungu odam, mehmonlarnu boshlab kelgan-chu...

- Daroz bo'ylik, shapkalmi? Nima deydi? - dedim ichim g'b'urnishlab kelib: "Kim yuboribdi u kishini?"

Kennoyim "O'sha-o'sha", deb tasdiqladilar-u, u yogibini aytishga tillari bormay, oshxonaga oshiqdilar.

Mening ishtaham o'lib bo'lgan edi, u kishini yarim yo'lidan qaytarishga tushdim:

- Shoshmang, nima deydi? Axir men o'lgani ketgan emasman-ku, birpas kutmaydimi? Qolaversa, chaqirsa ovoz yetadigan joyda - hujrada edim-ku.

- Bilmasam, Maqsudxon, gapuni eshitub, "menu oborchi-obor"lab qoldular kichigoyum.

- Yo'gb'e...

- "Xudo olsin ularni, Fargibonasiga jo'natarda kerak bo'luvdi, endi Toshkanga sigibmay qoptimi"lab otlanaverdilar. "Sen obormasang, ana, kelinum oboradi" deb qaytmadular.

- O'ziyam birgalashib ketdimi? - dedim bo'shashib.

- Xudonu zoruni qildu, "Siz bormang, o'gb'bluz xafa bo'ladu"lab. Eshitubam qo'ymadular.

- U qilishibdi-bu qilishibdi, ishni buzishibdi-ku! - dedim ensam qotib.

- Unaqa demang, Maqsudxo'ja, qaytuga kichigoyum ishizzu to'rulab keladula, qarab turasiz, - deb kennoyim oshxona tomonga yuraverdilar.

Fe'lim aynib, kayfiyatim buzilib bo'lgan edi, o'tirrimni ham, oyimning orqalaridan yetib borarimni ham bilmashdim: Jo'ra akamga ham Xudo bo'y berib, aql bermagan ekan-ku! O'sha gapni oyimlarga doston qilib ko'tarib keptimi?! Koshki boshliqlar undan ko'risha! O'zi qilgibtilikni qilib qo'yib, oyisini jo'natibdi, deb bir karra aytishadi. Bitadigan ishni ham bitirishmaydi. Lekin oyim ularni ko'p mulzam qilgan bo'lsalar kerak. Qaysi sho'ri qurigan u kishiga ro'baro' bo'lди ekan? Sirasini aytganda, oyimning

borishlari mening sha'nimga yaxshi bo'lмаган edi. Avval ayab, yon berishsa ham, endi ayashmaydi! Endi qolib bo'lmaydi! "Oyisini yuboribdi, zo'r xotin ekan, advokatlar ham ip esholmaydi u kishining oldida", degan gap menga kerak emasdi. Nima bo'lsa bo'lди, Xudoning xohlashi shu ekan deb, o'tirib "non-palov"ni tushira boshladim. U shunaqa xushxo'r ediki, tavba, bunaqasi kamdan kam bo'lardi. Yo kosada o'rogబлиq turib, shunaqa ilikdek bo'lib ketgan, yo o'zim o'lгudek ochqagandim. Ikkisidan biri.

Kennoyim choy ko'tarib kelib, uni qaytara boshladilar. Men boyagidan ancha tushganimni ko'rib, u kishi tizzalarini sal yonga bukip, bir chiroyli ham omonatgina o'tirdilar. Shoshmay choy quyib uzatib, mendan hol so'ramoqchidek, mavrid kutib qarab qo'ydilar. Men u kishiga sir boy bergim yo'q edi, (kuymagani bitta men qolib edim!) lekin shu mahal u kishi yarim xo'siniq ila tin oldilar. Menga achinib-kuyishlarini istamay ulardan ilgariroq otni qamchilab, gapni tamom boshqa yoqqa burdim:

- Yodgor qani, bir yerga o'tib kelardik.

- Chiqib edu, uzoqub ketmagandur, chaqiraymu? - dedilar u kishi taraddudlanib.

- Men o'zim shaxmatga alahsib ketibman. Olim akamning tomonlariga, baliq oviga o'tmoqchi edik.

Kennoyim shu tobda ko'nglimga shunaqa narsalar siqqaniga hayron qoldilar. Bundan o'zim ham xijolatga tushib, siperishladim:

- Men unga yolgbонchi bo'lib qolmay, deyman-da...

Kennoyim tushunib, bosh silkidilar. U kishi To'ram taqsirnikiga borib kelganimizdan beri, dam urib bergen zamzam suvlarini ichibmi, chiroylari hiyla ochilib, kamgapliklari qola boshlagan edi. Ammo hozir ko'zlarini yerdan uzymay, tizzalarini silab o'tirar, nimadandir istiholada edilar. Nihoyat:

- Tinchlikmu, Maqsudxo'ja, ishingizda bir nima o'tdumu? - deb yuzimga termuldilar.

U kishi o'zlarini ilgarigiday yaqin olib, ko'ngil so'rashlaridan boshimga dovur bir jimirlov yugurib, гбТалати tortib ketdim.

Xo'rlikmi, nimadir bosib kela boshlab, sarosimalandim:

- Yo'q-yo'q, shunchaki bir arzimas gaplar. Vahima qiladigan yeri yo'q, - deb yolgbонlashga tushdim-u, o'zimning yolgbонимдан o'zim uyaliblar ketdim.

Endi bildim, hammadan yashirsam ham, bu kishidan yashirolmas ekanman.

- Yo anuv kelganlar tufaylu... bir gaplar bo'ldimu? - Kennoyim nimadandir xavotirda edilaru ochiq-yoriq ayta olmas edilar.

- Qaysi?.. - deya yalt etib betlariga qaradim.

- Anuv zanjularnu aytaman-da. Osmondan tushganday kelub ketganlar-chu?..

Men ko'nglim buzilib kela boshlab:

- Shunga yaqinroq, - deya oldim.

- Qanaqasiga? - u kishi tashvishga tushib qolgan, hatto bir qadar menga o'girilib olgan edilar.- Ruxsatsuz kelishgan ekanmu?

- Sizga qanday tushuntirsam?.. - deya chaynaldim, - asli gap ularda ham emas.

- Bo'lmasa, nimudan vagaғбз axtarishadur?

Endi ochiqroq aytavermasam bo'lmasdi. Mendan begona emas, bu gaplarni tushunadigan, musofirlik nimaligini bilgan kishi so'ramoqda edi.

- Bir vatangado... shahriga yashiriqcha, sayyoх qiyofasida kelgan ekan. Orqasidan bilib qolishib...- dedim.

- Voy, o'lmasam, ushlab olushibdimu? Shuni yozasiz deyishdimu Sizga? - Kennoyimning yuzlari oppoq oqarib ketgan edi, ko'rib qo'rqib ketdim.

- Yo'q-yo'q, allaqachon chegaradan o'tib ketibdi.

Kennoyim yengil tin olib, ko'ksilariga "tuf- tuf'lab qo'ydilar:

- Hayriyat, Xudo asrabdu.

- Asrayman deganni tikan ham kirgizmay asraydi ekan, - dedim.

- Illohumning o'zi гбТамxo'r,- deb turgan kennoyim yana xavotir aralash qarab qo'ydilar. - Anuvar-chu, ularam eson-omon o'tub olushibdimu?

Men bu gapdan esim oғбin qirab, u kishining betlariga termuldim:

- Nega unday deyayapsiz, kennoyi?

U kishi javob o'rniga ham ko'zlarimga tikilib qolgan, sirli bir narsani so'ramoqchidek yo bo'lmasa, men ham o'sha sirdan voqifligimni bilmoqchidek ko'zlarini uzmas edilar. Men esam bunga sari o'sha haqiqatni anglab borayotgandek boshim gir-gir aylana boshlagan, ichimdan bir hapriqish qaynab chiqmoqda edi. Axiyri u kishi allatovur yoshlanib, kiprik qoqsayoq, duvillab to'kilib berishga tayyor ko'zyoshlarini yashirishga urinib, etaklarini silashga andarmon bo'lildilar. Andarmon ekanlar, allaqanday to'lib-to'liqib yorildilar:

- Sizga yolgbон, Xudoga chin, Maqsudxo'ja, o'sha kundan beru mijja qoqolmayman. Qoqdum deguncha akayiz ko'runga veradular. Bilmassam, nimudan?

- Qanday, kennoyijon?.. Biron narsa sezgandaymi ediz?

- Yo'q-yo'q, o'sha vaqtida hech narsa xayolumga kelganu yo'q, sezganum ham yo'q, - deb u kishi bosh to'lgбhab edilar, qaroqlarida ilinib turgan yosh bilaklari aralash xontaxta ustiga duv to'kilib berdi-da, qaybirlari oq dasturxonni, qaybirlari yengini xo'l etib, yana qaybirlari kafti ortini o'pib qoldilar.

Sezmagan bo'lsalar, nega yigбblaydilar, ko'zyoshlarini to'xtata olmaydilar? Balki biron narsadan?..

- Yo biron narsadan shubhalangan joyiz bormi? Shundan beri tinchiz yo'qmi?

- Unday ham... bo'lganu yo'q, - deb yerga qaradilaru etaklarini silab, ko'rpaха ustidan ushoqlarnimi, bir narsalarni terindilar.

Ishqilib ko'zimga qaray olmas, qarasalaroq o'pkalari to'lib ketayotgandek edi. Sezib turbman, nimanidir aytolmayaptilar. Istihola qilyaptilarimi?.. Mendan tortinsalar, kimga aytadilar?

- Aytaversangiz bo'lardi...

- Nimanu, Maqsudxo'ja? - U kishi yalt etib betimga qaradilaru, ginamni tushunib, nigohlarini olib qochdilar. - O'shandan beru tinchumnu yo'qotganumni aytasizmu?

- O'zidan o'zi... shunday bo'lmas...

Kennoyim qaynarbuloq ko'zidek qaroqlarini kaftB-larila artib, iymanibgina qarab qo'ydilar.

- Bilasizmu, - dedilar axiyri o'ksik bir ohang-da, - O'sha kunu birov sezub, birov sezmagan bir sinoat o'tganuday bo'lib edu...

- Sinoat?.. - deya azza-bazza o'nglanib oldim men.

- Shunga yaqunroq, - deb u kishi yana qayta xayollanib qoldilar.

Qistashga tushdim:

- Menga aytmasangiz, kimga aytasiz?! Siz yashirmang, kennoyi.

Kennoyim norining qizili yuzlariga yoyilib, uyalibgina qarab qo'ydilar.

- Balku men adashayotgandurman. Menga shunday tuyulgandur. Asli unday ham emasdur...

- O'sha Sizga qanday tuyulganini aytin, yashirmang, - deb o'tina boshladim. Yodimdan esa, Jo'ra akamning: "Maqsud, u xabash bo'lsa ham bizdan tuzukroq ekan", deganiyu Terakli ota oldidan o'tayotib kishibilmas yuziga fotiha tortgani ketmayotgan edi.

Shunga o'xshash harakatlaridan biron narsa sezib qoldimikanlar, kennoyim ham?..

- Rostuni aytasam, Maqsudxo'ja, o'shalardan bittasu juda g'bhalatu edu. Eslasam, halugacha yurakum titraydur...

- Qaysi bittasi? Tushuntiribroq aytavering siz... .

Kennoyim ikkilanibgina yuzimga qarab qo'ygandilar, men yana qistadim:

- Siz yashirmang-da...

Shundagina u kishi titranib tin oldilar:

- O'sha boshiga tuyaqshu patudan tojmu-nimu taqub olgan... aylanadu kelub biznu suvratga olar, aylanadu kelub apparatuning ko'zidan tikular edu...

- Sizlar kim? Yodgor bilan Siznimi? - dedim yutoqib.

- Ha-da, o'zi marjon-marjon terga tushub ketuptu. Rahmum kelub, Yodgorumdan bir piyolagina choy berub yuborsam, gung-soqov odam - qo'luni ko'ksiga qo'yup... g'bhalatu qarab turuptu... O'sha qarash...dan, Maqsudxo'ja, etlarum simillab ketsa deng!

Keyungisi undan o'tub tushgan edu.

- O'tib tushgan edi?.. Qanday? - Men lolu behol qolgan edim.

- Keyun shoshub qolub, kaftuni kaftuga juftlab hindulardek ta'zum etsa, akangizning bir odatlaru yodumga tushub - esum og'bub qolayozdu. U kishi shunday xayrashur edular...

Ana, xolos! U qora-quralar bizni tomonlarda nima qilib yuribdi - eskiyu yangi hovli-joylarimizgacha borib, deb o'tiribman!

Papauslar yo'lboschisi qiyofasida kelgani - akam bo'lsa agar - hammani toza dog'bda qoldirib ketibdi-ku!..

- Keyin-chi, keyin? Ketayotganida-chi?- dedim yuraklarim hapriqishga tushib.

Kennoyim nochor jilmayib, yer chizdilar:

- Shuncha kutdum, zora qaytarsalar deb, ammo sir bermadular. Balki menga shunday tuyilgandur. Ular ham emas, chin habashlardur. Yana Alloh biladu.

- Albatta, Alloh biladi, unga ma'lumroq. - dedim turib-turib. - Lekin bilasizmi, men uning o'rnila... boshqa ish qilgan bo'lardim!

- Qanday?! - dedilar kennoyim hayron qolib.

Men u kishini hayron qoldiranimdan g'bhalurlanibmi, o'zimda yo'q quvonib, xontaxta ustiga shappaladim:

- Shundan shu yoqqa shuncha berk sarhadlardan o'tib kelibam o'zini tanitmagan odam... qo'riqchilarning ko'zini shamg'bhalat qilib, bir kechaga kelib ketolmasdimi?! Men uning o'rnila tavakkali alalloh, kelardim!

Kennoyim ko'zları chaqnab, betimga qaradilaru shu zahoti ikki yuzlari lov yonib, yer suzib qoldilar. Lablarining cheti jilmayinqirab qoshdilar:

- Sizam, Maqsudxo'ja, qarab turub kimga o'xshab ketopsiz?! Tuproqlariz bir yerdanmi, tavba...

- Qani edi, u kishining tirmog'biga o'xshasak... - deya oldim.

- Inshaalloh, deng undan ko'ra, - dedilar kennoyim.

- Aytamam ham!.. - dedim.

Chindan g'bhalati edi! Uchqur otlar, Barzan singari qanotli, dovrulqi otlar uzoqdan - hali bir-birlarini ko'rmay turib, hid olgan zahotlari soy-qirlarni jangillatib kishnab yuborganlari singari edi mening ham bu holatim!.. "Qani edi, qani edi", derdim.

Nima bu? Nimadan belgi? Hid olgan bo'z otlar kabi qaydan ichimga bir turluk g'bhalayonlar tushib, o'zimni tanib qoldim?

Kishnab yubordim?!. .

Darvoqe, bo'z otlar nega kishnaydilar? Judo bo'lgan diyorlarnimi, nimani sog'biniib kishnaydilar? Uchqur sheriklarini qayon chorlaydilar?..

O'zim tushunolmasdim.

Osmon yiroq, yer qattiq bir kunda

Men chindan hech yerga sig'bmasdim.

Oyim qaytishlarini kutib, ko'chaga necha bor chiqib keldim: kun asrga qarab ketyapti, ulardan darak yo'q. Yodgor ham qayoqqadir to'psurarga jo'nab yuboripti. Qaytsayoq "polkovniklarning sobiq bog'b'i"ga o'tib kelarmidik.

Shu bahona Olim akamga ko'rinib, yorilgim bor. Qolaversa, u To'ramning iltimoslari bilan qayoqqadir ketgan. Salt-svoy odam o'ziga har xil yurishlar topib olaverarkan-da!

Bu yoqda qancha voqealar o'tib ketibdi, u kishimning yurishlari bunday.

Ilgari yuragim bunaqa tor emasdi. Orqaga tashlay bilardim. Endi manavi mash mashalar tufaylimi, na uyga, na ko'chaga sig'bardim.

Nihoyat, ko'cha eshik oldiga mashina kelib to'xtab, ular tushishdi. Men "suyunchi"lab chopgan bolakaydek yugurib chiqishni o'zimga ep ko'rmay, hovlida "kuyumanib yurgan" edim, darvozaxonada oyimlarni qo'ltilqlagan ayolim ko'rindi. Oyim xorib-charchaganlari ustiga juda ham tund ko'rinar edilar.

Ana xolos, hech ish chiqarolmay qaytishibdi-ku!.. Bundan o'z izzatlarida turib, bormaganlari ma'qul emasmidi! Lekin buni shu tobda u kishiga qanday aytu olasan?! U kishi mening uzoqdan bergen salomimga alik olib-olmayin (olsalar ham damlari ichlarida) ichkari kirib ketdilaru o'lan ko'rpachalariga cho'zila qolib:

- Voy, moshin bo'lmay ordona qolsin, shaldoq aravaning o'zi ekan-ku. Siylagani shu bo'lsa... - dedilar.

"Siylaydi-ya, siylaydi! Qutulish uchun bergen! Shuniyam tushunmadizmi", degim keldiyu, qani og'biz ocha olsam... Men ichichidan u kishidan xafa edim. Bir og'biz so'rasalar-ku, aytaman-a! Ish pishgan, yalinishga arzimaydi deb! Endi nima bo'lidi? U kishining yuzidan o'tolmay kichikroq bir ishda qoldirishganda ham ming yilgacha ko'zimni ochirishmaydi-ku. "Vo-oh, buning zo'ri oyisi bor ekanmi? Advokatlar ham ip esholmaskan" degan qochirqlari kimga kerak?! Bir kun emas, bir kun bo'shab ketishim tayin.

Shu tob ayvon qoshida ayolim ko'rindi:

- Adasi, shofer so'ravotuvdi, ko'rinib qo'yasizmi?

- Bir kami shu qoluvdi.

Men to'ngb̄billay-to'ngb̄billay chiqib borsam, o'zimizni "jujurka" shoferlaridan ekan. Yaqin olib, ko'ngil so'ray ketdi:

- E, sizzi oyizlami? Zo'r ekanlar!..

Ana, aytmovdimmi?! Halitdan boshlandi!

Men uyatdan yerga kirgudek zo'rgb̄ha mingb̄tirladim:

- Menga aytmayinam kетvorishipti: bular boradigan ishamasdi...

- Shunday deysizu... bir hisobda yaxshi bo'lidi! Bo'lmasa, qulogb̄bizzi ushlab ketuvdiz.

Men uning betiga tik qaradim:

- O'sha ketganim yaxshi edi bundan.

Shofer sergak tortdi:

- O'x-o', gb̄bururing zo'r-ku?! - dedi u sensirab ham yaqin olib.

- Birovdan qarz oladigan joyim yo'q, - dedim kamiga. - Nima, oyoqlarini o'pib, kechirim so'raydigan ish qipmanmi?!

Men azza-bazza qaytib kirib ketishga hozirlangan joyimda u orqamdan kelib, yelkamdan quchdi. Keyin o'ziga qaratib:

- Shu gb̄bururingni mahkam tut, hali yana o'sib chiqasan, ko'p maqlolaringni o'qiyimiz, omon bo'l, - dedi.

Ichimda "Bu boshqa gap", dedim-u, ammo o'zim sir bergim kelmasdi.

Keyin u ketdi, men o'z izzatimda qola bilganimdan xursand edim. Hatto oyim ularni qanday sindirib kelganlarini... so'rab o'tirmadim. So'raydiganim ichkarida edi, o'sha ichkariga kirib boraverdim. Saida allaqachon ko'chaligini uylikka almashtirib bo'lgan ekan, kirishimdan bo'yning osilib olib, yigb̄bini boshlab bersa, dovdirab qopman.

- Ha, nima bo'la qoldi, oyim osmondalar-ku? - dedim uni bagb̄trimdan uza olmay.

- U kishini avrab yuborishdi. Asli zigb̄bircha rahm qilishgani yo'q, adasi, - deb u xo'rligini yutolmay battarroq bagb̄rimga yopishdi. - Endi nima qilasiz, jo'javirday jon bilan ko'chada qolavurasizmi?

Yorilolmay turgan edim, shu bir ogb̄biz so'z kifoya bo'lib, uni devorga suyab qo'ya qoldim:

- Hov, ko'chada qolishimni bilgan! - derdim ikki yelkasidan silkilab, - senga kim aytdi o'shalarga yalinib borsin deb?! Kim aytdi, oyimlarni boshlab borsin deb?! Ular hamiyatni biladimi!

Ayolim aybini sezib, bo'shashib tushdi:

- Oyim... qo'yidilarmi, adasi.

- Sen kimga tekkansan? Mengami, u kishiga? Mendan beruxsat shu uydan bir qadam jilishga nima haqqing bor?..

Narigi uydan oyimning zardali ovozлari keldi:

- Hoy, Maqsudxo'ja?!

Noiloj past tushib, chiqib bordim:

- Nima edi, oyi?

U kishi jahldan tushmagan ekanlar, birvarakayiga eshitib oldim:

- Dard edi! Isaning alamini Musadan olguncha, mana, mendan so'ramaysanmi? Qilgb̄biliqni qip qo'yib, kimga zaharingni sochyapsan!

- Nima qilgb̄biliq, oyi? Men xohlamadim, xolos. Aybim shumi?

- Moshin yuborib, chaqirtirib olishar balki?! Shuni kutayotgandirsan?

Bu gap suyak-suyagimdan o'tib, to'ngb̄billadim:

- Ko'chada qolmasman...

- Qolib bo'lganakansiz! Tagb̄binam insof qilishdi.

- Insوف? - Men yalt etib yuzlariga qaradim. Buni qanday tushunishni bilmasdim.

- Ana, xotiningdan so'ra. Allaqaysi bir jo'rnalgami, nimaga yuboradigan bo'lishdi, - dedilar gb̄holiblardek qo'l to'lgb̄hab.

Ichim shuv etdi! Nazarimda ko'ksimda bir narsa uzilib tushgan edi! "Ana, xolos! "O'zTAG"! ga ham arzitmabdilar-ku?!" U o'lsa o'ligi ortiq, hamma "urilgan zo'r"lar, qalami o'tkirlar jo'nataladigan joy edi. Unga hamma ham yetisholmasdi. O'shani ham ravo ko'rismagan bo'lsa, qay go'rga jo'natishmoqchi ekan?

Men yalt etib, avvonda qolgan xotiningda qaradim. U yoshli ko'zlarini chetga olib, yer suzgancha titranib turar edi.

- Aytavur, - dedim yanib, ham ayama degan kabi,- tilga olishga ham uyatli emasdир.

Uning bo'gb̄bzidan bir ogb̄bizgina so'z uchdi:

- Koshkiydi...

Men shundagina nima gapligini anglagandek bo'l-dim.

- Shoshma-shoshma, "Bir safda"gami? Ko'zi ojizlar jurnaliga-ya?- deb yubordim ichim sidirila-yozib.

U yosh to'la ko'zlarini ko'tarib, im qoqib edi, ular duvillab oqa ketdilar!

Mening esa, boshimga dovrur bir jimirlov yugurgan edi, seskanib o'zimga keldimu:

- Shumi marhamatlari, oyi? Bundan ko'chada qolganim... afzal-ku, - deya bosh egib chiqib bora boshladim.

Oyim daf'atan gangib qolgan edilar:

- Voy, nega unday deysan, Maqsudxo'ja? Xudo qargb̄bagan bir joy emaskan-ku, - dedilar negadir.

- Qaeri kam? - dedim men ostonada to'xtab.

- Qo'y, unaqa dema. Ular ham Xudoning suygan bandasi. Qaytaga bu yodda topmagan savobni o'sha yerdan topasan, - dedilar oyim o'zlarini o'nglab olib. - Har so'zing bir qorongb̄bi ko'ksga nur bo'lib kirsia, yomonmi? Buyam Xudoning marhamati, bolam. "Suv yo'gb̄tida tayammum! Shundaymi?", degim keldiyu aytmay chiqib boraverdim.

Menga alam qilardi. Ana senga, "mardumi fargb̄bonalik!" Chetdan kelmasam, ikki dunyoda xorlashmasdi. Endi-chi? Birinchi qoqilganimdayoq munkitib yuborishdi! Turmaydigan qilib, tepib yuborishdi-ya!

- Yo'q, bu xo'rlikka chidab bo'lmaydi! Undan ko'ra, o'z ishimga ketaman! Loyihachiligidni qilaman! - dedim ayvonga chiqib olib.

- To'gb̄tiri qilasan, ana, hammayoq qurilish bo'p ketti. Allada aziz injener bo'b yurganingga nima yetsin! Bo Xudo, ochdan o'lmasmiz. Yozuvchi bo'lmasang-bo'lmassan.

"Voh, shu oyimlarmi?" - Yalt o'girilib qarasam, behazil aytყaptilar. Ogb̄bzim ochilib qopti!

U kishi holimni ko'rib, ta'nali iljaydilar:

- Ha, ko'zing qiymayaptimi? Qiymasa, har so'zni o'ylab gapiresh kerak. Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishtalar o'min deb

turadi. Unutdingmi, shuni?..

- Kechirasiz... - Men bo'shashib tushgan edim.

- Avvalo, Ollohnning yozmishidan ortigb^Tbi bo'limgan, bo'lmaydi ham, - dedilar oyim kamiga. - Qolaversa, odam jindek sabrli, shukrli bo'lishi kerak. Undan beriga ishing o'nglanishiga ishonma. Shu esingda bo'lsin. Bor, bu yogb^Tini O'ziga tashlayu u yogb^Tidan ham bexabar qolma...

"Qarisi bor uyning parisi bor", deganlari shu bo'lsa kerak. Men xotirjam tortib qolgan edim.

Shu payt ko'cha eshik oldiga pat-patdan harob, "ko'ksov" bir mashina kelib to'xtadiyu o'sha yoqqa qarab yurdim. Chiqsam, almisoqdan qolgan mashinadan (yo'qdan ko'ra minib yuribman devdi, hali ham alishtirmabdi!) Olim akam tushib kelyapti. Tilla topgan odamdek ogb^Tzi qulogs^Tida. Kamiga soqol-murti yuzini qoplab, o'zi allaqandek qorayib ketipti. Shahar odamidan ko'ra, qo'nimi yo'q safar kishisiga o'xshaydi.

- Assalomu alaykum. Jahongashta mashinangiz bizzi ko'chalarni ham topib kelarkan-ku! Shu kelishizda qaerlardan so'raymiz? - dedim ko'rgandan bahri-dilim ochila borib.

- E, nimasini aytasan, uka. Yeldim-yugurdim, uyqu nima, tinim nima - bilmadim: axiyri izlaganlarimni topib, ijozatini olib kelyapman, - u quchoq oolib ko'rishgani kela turib, daf'atan alanglab to'xtadi. - Darvoqe, Yodgorning o'zi qani? Meni jigargo'sham qani? Chaqir, samantoyning o'zini. Va nihoyat, ijozat tekkani bilan qutlab qo'yay uni!

- Ijozat? Qanaqa ijozat? - dedim men ang-tang qolib.

Bungacha Olim akam yetib kelib, meni devdek bagb^Triga tortib ulgurdi. Va pishillab quchganicha kuraklarimni silar ekan:

- Qanday ijozat bo'lardi, o'n sakkiz yillik armonlarni ushatib yuboradigan bir ijozat! Adajonisini ko'rarga, ruxsoriga to'yarga ijozat! Va nihoyat, Oltinxon to'ram farzandlari bilan birga jo'narga, bu ham padaribuzrukvorini ko'rib kelariga ruxsat! Shunday qogs^T boz olib beradigan bo'lismi, Maqsud. Muftiy domlam bilan To'ram aralashmasalar bu safarni ikki dunyoda ham ixtiyor etib bo'lmadsi. Eshityapsanmi, Maqsud, iqbol yuz ko'rsatib, ro'shnolik eshiklari ochilmoqda. Suyunchilik muborak bo'lsin!

Men ham unga mahkamroq yopishdim:

- O'zlariga ham muborak bo'lsin yaxshi xabarlar,- deya yuzimni yuzlariga ishqarkanman, quloq yumshogs^Tidan o'pgudek bo'lib, shivirlamoqqa tushdim. - Darvoqe, siz hali hech narsadan xabaringiz yo'q; akam keb ketiptimish...

- Kim, Sulton akam-a? - dedi u birdan meni mushuk bolasidek gb^Tjimlab va o'zidan nari itarib. Ammo qo'yib yubora qolmasdi.

- Bu hali sir, - dedim shivirlab, - Hukumat bilmaydi.

Olim akam bo'shashdi. Meni changalidan qo'yib, ko'zlarini chirt yumbancha, bir muddat turib qoldi. U aftidan bu xabarni kutmagan, hozir esa, tasavvur eta olmay turar edi.

Men uni xushiga keltirmoqqa urinib, battar qovun tushirdim:

- Siz bularga gapirib yurmang, tagiga yetolmay o'tirishibdi o'zları...

Olim akam "shunaqami hali" deya rapidadek kaftini yelkamga tashlab edi, ogb^Tib ketarimga bir banya qoldi. Kamiga:

- Men kimning gb^Tamida chopib yuribman, u kelib ketibdimi-a? - dedi.

- Bilasiz-ku uni. Kishibilmas shunaqa odatlari bor... - dedim.

U horgb^Tin bosh to'lgb^Tadi:

- Shunisi chakki bo'pti. O'zining yo'liga o'zi... gb^Tov tashlab ketipti.

Men shoshib qoldim:

- Nega endi? - dedim shipshigancha, - bu axir, sir-ku. Birov bilib, birov bilmagan. Hukumat qayoqdan is oladi?

U qo'l siltadi:

- Sen bilganni ular bilmaskanmi? Yerni tagida ilon qimirlasa bilar. O'ziga o'zi qipti. Endi ijozat berib bo'ptilar.

Yuragim xunuk tortib, shigb^T-gb^T etdi:

- Hali tekshirib kelib... elak-elak qilishadi deng?

U bosh to'lgb^Tadi:

- Ungacha borishmasa ham... barcha harakatlarim zoe ketipti.

- Ijozat tegdi, deyayotgandek edingiz-ku? - dedim ichim tushib.

Olim akam endi eshik tagida turishni o'ziga ep ko'rmay, yo'l boshlayverdi:

- Ijozat Oltinxon to'ramning tomirlariga tekan. Buni unga hamsoya etib qo'shmoqchi edilar. Endi o'ylashib ruxsat beradilar...

Bu qizil qor yogb^Tib, tuyaning dumি yerga tegsa agar, degani bilan barobar edi.

Sadagb^Tang ketay qariyalar (Bir uchi yolgb^Tiz muallifga ayon tarixlardan)

Ertalabdan ularning boshida shu niyat aylangandan aylanar edi: "Javr-javr - qalami o'tkirgina o'sha bolaga bo'pti. Fayzullaxonni insofga chaqirib, Xolbekka uchrash kerakmidi? Savob ham kerak-ku odamga! Bunday tili shirin mirzoni qaytib qachon onasi tugb^Tadiyu, qachon bizga ishga keladi?! Insof ham kerak odamga".

Qaerdan shu fikr-shu niyat uch qariyaning ko'ngliga tushdi, hamma uyiga sigb^Tganda ular sigb^Tmay qolgan, eldan burun ishga otlangan edilar.

Jamalaksoch qizaloqligida shu dargohga kelganicha nechta mashinkani "sayratib-qaritgan" Gulsum opoy shu niyat-la sarkotibgami, kimga uchrarini mo'l kelar edi.

Hammadan burun kelib olgan ishxonaning "ming yillik kutubxonachi"si (qarib, pakana tortib - mitti kampirga aylanayozgan) Osiyo xola esa, eshik-derazalarni oolib, kutubxonani shamollatib o'tirar, yo'lakda tiq etgan tovushga bir mo'ralab, kimnidir yo'llini poylar edi.

Gulsum opoy yogb^T tomsa yalagudek yarqiragan yo'lakka kirib kelganida kotibning eshigi har qachongidek ochiq turar, opoy niyatiga yetgandek edi. Sumkachasini ish joyiga tashlab chiqsayoq, bas. "Opoy-opoy"lab bir yerga yetadigan kotib iltimosiga yo'q demas. Jindek insof qilsa - qilibdi bolaga.

Ammo opoy eshik ro'parasidan shipillab o'ta turib qabulga kechikkanini ko'rdi. Hamisha xushchaqchaq kotibning ro'parasida baland bo'yli, salobatdan Xudo qismagan adib Habib No'mon (o'sha "Yoshlikda bergan ko'ngil"ni yozgan kishi) yuzidan nur yogb^Tilib o'tirar edi. Bu nur bejizmas, Habib aka o'n yoshida Qur'on ko'targan - "bulbul qori" nomini olgan ekan. Buni hozir birov bilib, birov bilmaydi.

Shu odam bugun ertalabdan bu xonaga qo'r to'kib, kotibni qadim bir rivoyat bilan siylar, u ham jon qulogb^Tini berib tinglar edi.

- Shunaqa, Fayzullaxon. U tuyakash yigitning hech bir tuyasidan noliydgigan joyi yo'q ekan. Hammasi cho'k desa, cho'kar, tur desa,

turarkan. Burundugb^hidan ip o'tkazib, Shomga qadar borib keladi ekan. Kunlarning birida o'sha tuyalaridan bittasiga jin tegib, birovning bogb^higa surib ketibdi. Surib ketgani mayli, yigitga bo'y bermay butun bogb^hni payhon etib tashlabdi. - Habib aka so'zni birovdan qarzga oladigan odam emasdi. Shu bois kotib eshikni berkitchishni ham unutib uni tinglar, ikkisi ham rivoyatga berilib ketgan edilar. Habib aka esa, hatto o'midan turib olib, papirotni ulab chekkanicha hikoyani davom ettirar edi. - Shunaqqib, Fayzullaxon, quturgan tuya arzimagan vaqt ichida birovning guldek bogb^hini yer bilan bitta qilibdi. Egasi chiqsa, haligi ahvol. Yigit tuyasini quvib yurgan mish, tuya esa, u tomongan bu tomonga haloplab choparmish. Bogb^hbonning figh^honi chiqib, tuyakashni bo'ralab so'ka ketibdi:

- He, eplasang yetakla-da tuyangni! O'rgildim sendek tuyakashdan! Ol, quturgan tuyangni, Xudo bezori,- deb kamiga orqasidan tosh otgan ekan, yigitning to'pigb^higa borib tegibdi. Yigit ham jon achchigb^hida o'sha toshni ola bogb^hbonning o'ziga itqitsa - Xudoning yozmishini ko'B^h-ringb^h" tosh qariyaning boshiga tegib, u shilq etib qulabdiyu omonatini topshirib qo'ya qolibdi. Shovqin-suronga qo'rgb^hondan yugurib chiqqan o'gb^hillar ko'rishsaki, haligi ahvol: bogb^h payhon qilib tashlangan, kamiga otalari yerda jon taslim qilib yotibdi. O'gb^hillar, albatta, buni tuyakashdan ko'rib, avval uni tutib, toza do'pposlashibdi. Axiyri esa, qonga qon da'vo qilib, qoziga boshlab keptilar. Qozi nima qilsin, tuyani jazoga tortolmaydi, tuyakashni o'limga hukm qipti. Shunda Fayzullaxon, haligi musofir so'z so'rab, qoziga murojaat etibdi:

- Qozi janoblari, na iloj, osmon yiroq, yer qattiq, men hukmizga roziman. Faqat menga uch kungina muhlat bersangiz. Falon shaharda yolgb^hiz onamu ahli ayolim qolgan. Qolaversa, odamlardan olgan omonatim bor. Ruxsat eting, uni qaytarishga, tokim orB^h-qamda qarzim qolmasin. Borish-kelishga ikki kun ketadi. Bir kun ularni ko'rib, qarzlarimni qaytarishga yetar, - debdi.

- Yaxshi, kim kafillikka o'tadi? - debdi qozi.

Hamma jim emish.

- Xaloyiq, men yigitga ijozat berolmayman. Kimdir kafillikka o'tishi kerak, - debdi qozi.

Shunda Fayzullaxon, oppoq kiyangan bir qariya o'rtaga chiqib kelibdi:

- Mana, men o'tdim, unga javob beringiz: bo'ynidagi qarzlarini uzip kela qolsin, - debdi u.

Hukm kuchga kirib, yigitni ozod etib o'rniga qariyaning bilaklariga kishan uribdilar...

- Ajabo, qariya nimaga ishonib kafillikka o'tibdi? Yigitni qaerdan taniydi ekan? - dedi kotib.

- Siz oxirini eshititing, Fayzullaxon,- dedi adib.

- Hali oxiri ham bormi?

- Bo'lganda-chi! - dedi Habib aka papirotni bosh barmogb^hi birla o'rtta barmogb^hining orasiga olib, uchini kuldonga ezgb^hilarkan. - Aytilgan muddat o'tib, kafil dor tagiga opchiqib qo'yilgan mish-u, yigitdan darak yo'qmish. Qozi hayron: ostirib yuboray desa, qariya uvol. Tangrining oldiga borganda nima deb javob beradi?

Da'vogarlar hayron: qotil ketib, bir oppoq - taqvodor qariya dor tagida ikki rakan namozini o'qib o'tirgan mish.

Xaloyiq hayron: yosh ketib, dor tagida qariya qolganiga. Buning hikmati ne - hech kim tagiga yetolmasmi. Kafil turma, kafansiz ketasan deganlari balki shudir? Shunda uzoqdan bir qora ko'rinishdi. Tikilib, intiqib qarashsa, javob so'rab ketgan musofir halloslab chopib kelayotibdimish.

Yana hamma hayronu hayratda qopti: nedurki o'limdan qutulib ketgan tuyakash dor tagiga qaytib kelyaptimish. Kelganda ham kech qolmadimmi deb, halloslab chopib kelyaptimish.

U yetib kepti ham:

- Voh, Xudoyimga shukr, ulgurib keldim-a, jilla qursa, sizning ham xuningizga qolar edim, - deb qariyaning oyoqlari ostiga o'zini tashlabdi.

Shunda qozi kafilni ozod etishlarini buyurib, yigitga savol nazari bilan qarabdi:

- Xo'sh, o'gb^hlim, dordan qutulishga-ku qutulib ketuvding. Yana nechun halloslab yugurib kelding, o'limga shunchalar tashnamisan? - debdi.

Yigit o'midan turib, javob qilibdi:

- O'limga tashna emasman, lekin bu kishiga so'z qilib ketgan edim, musulmonlar lafzida tura bilmasakan demasinlar deb, qaytib keldim, - debdi u.

Qozi kafil turgan qariyaga o'girilibdi:

- Siz-chi, qariya? Bu yigitni tanirmidingiz?

- Yo'q, tanimasdim, - debdi u.

- Unda nimaga ishonib kafillikka o'tdingiz? - debdi qozi.

- Lafziga ishonib. Qolaversa, bu shaharda bir musofirni kafillikka oladigan musulmon qolmabdi, demasinlar deb o'tdim, - debdi qariya.

Shunda bogb^hbonning da'vogar o'gb^hillari o'rtaga yugurib chiqib, tuyakash yigitni quchoqlab olibdilar:

- Shoshmang, qozi janoblari. Bu yigitni biz gunohidan o'tdik, Allah rozi bo'lzin sizlardan, - deb turib olishibdi. Taqdir shunday narsa, Fayzullaxon. Men ham oldingizga shu oq boshim bilan bir ish yuzasidan kirib o'tiribman, nimagaligini tushungandirsiz? Keling, Siz ham o'sha mirzo bolaning gunohidan o'ting. Hamiyat qiladigan odam qolmabdi, demasinlar bu ishxonada. O'zi uzoqqa boradigan bola, abgor qilmaylik uni...

Gap aylanib nimaga taqalganini anglab yetgan kotib, o'rnidan turdiyub bosh egdi:

- Men rozi, qori aka, - dedi u o'zi ham allaqanday yengil tortib. - Faqat Xolbek akaning oldilaridan bir o'gb^hiz o'tsangiz bo'larmidi...

- O'taman-o'taman, - dedi qariya ham tura boshlab, - Sizga rahmat, Fayzullaxon, men qariyaning so'zini ikki qilmaganingiz uchun. Xudo xohlasa, buning ajirini ham ko'rgaysiz, - dediyu chiqdi.

Haftaning boshi hech kim kutmaganda ana shunday xayrlı boshlangan edi. Darvoqe, sadagb^hang ketay qariya-lardan bunday go'zal vallomatlikni kutish kimning xayoliga kelibdi?!

Yusufbekxojining chevarasidan ko'rilgan muruvvat

Men "ishdan haydalib bo'lgan odam"... haftaning boshida eldan burun ishxonaga yetib kelganimga o'zim hayron edim.

Qo'ltingb^himda bir dasta topshiriladigan kitoblar, qavatimizga ko'tarilolmay (xuddi ko'rigan odam: o'l kepsan-ku, deydigandek!) zina tagida qisini turarkanman, elburutdan kelib olganimga o'zim pushmon edim. "Kamchatka"dagи kutubxonaga o'tib olsam bas edi-ku, lekin qavatimizga chiqib, yo'lakdan o'tishga yuragim bezillab turar, biron kishi bilan ko'rishib qolishdan qochib, zina

tagidan chiqolmas edim. Birdan kallam ishlab qoldi: axir, past qavatdan borsam, oxirida zina bor-ku. Undan chiqib, kutubxonaga kirib olish mumkin-ku. Qolaversa, o'sha yerda jon saqlab, biron soat o'tirgach, kutubxonachi Osiyo opadan azmoyish olib, buyruq chiqqan-chiqmaganini bilmoqchi edim.

Bu niyat o'zimga ham ma'qul tushib, pastki qavat bilan shipillab borib, yo'lak oxiridagi zinadan shunday ko'tarilsam, baxtimni qarangki, kutubxona eshlari lang ochigBT-u, tiq etgan jon ko'rinnmaydi. Osiyo opa xonani shamollatay deb, eshik-derazalarni ochganu o'zi po'chta olganimi, nimaga ketib, qaytmagan edi.

Jonim kirib, kutubxonaga o'zimni urdimu kitob javonlari ortidagi qay bir derazaning rahiga o'tirib olib, ko'rib ulgurilmagan kitobni varaqlashga tushib ketdim. Hali topshirib yuboradigan bo'lib qolsam, qaytib ko'ra olamanmi-yo'qmi, deb o'qishga berildim. Qolaversa, biron yerda vaqt o'tkazmoq ham kerak-ku.

Bir mahal Osiyo opa bilan boshlashib, kutubxonaga kimdir kela boshladi. Ular yo'lakay hol-ahvol so'rashib kelardilar:

- Shunaqa deng-a, Osiyoxon, qarab turib momo bo'pqopsiz-da, muborak bo'lsin, muborak bo'lsin. Xudo umri bilan bergan bo'lsin.
- Ovoz juda tanish edi, men ularni ko'rmasam-da, boshlashib kelayotgan odamni tanib bo'lgan edim: u muharrir muovini Xolbek aka edi. - Bir eriydigan bo'psiz-da, Osiyoxon. Qachon endi chaqrimoqchisiz? - Xolbek aka ichkari kira oromkursilardan biriga yastanib ola qoldi.

Menga juda noqulay tuyilib ketdi: chiqay desam, chiqib ketolmayman, qolay desam, qololmayman. Derazadan tushib gum bo'lish ham mahol. Qamalib qolgan o'gbTridek qisini oldim.

- Keyingi haftalarga, - dedi Osiyo opa uning qarshisiga cho'kib, - yana o'ziz bilan maslahatlashib kunini aniq qilarbiz.
- Bu boshqa gap. Siznikidan ham va nihoyat is chiqadigan bo'pti, Osiyoxon. Tabriklaymiz-tabriklaymiz, tortinmay aytavering, nima yordam kerak, - dedi Xolbek aka eshilib.
- Borsangizlar bo'ldi, - dedi Osiyo opa, - boshim ko'kka yetadi.
- Yo'q, undaymas. QutlugBT dargoh degan nomimiz bor. Tortinmay aytavering, nima kamchiligidiz bor: gilammi, televizormi? Bizdanan biron esdalik kirsin o'sha kulbaga.
- Ey Xolbek aka, qo'ying unday narsalarni, - dedi kutilmaganda qo'l silkib Osiyo opa. - Sizdan ko'p yaxshiliklar ko'rganmiz. OrtigBT ortiq. Faqat...
- Nima faqat? - dedi Xolbek aka qaddini sal ko'tarib. U men tomonga qarasayoq bu yerda kim o'tirganini ko'rар-u, lekin qaramas, butun fikri-zikri kutubxonachida edi.
- Bizga qiladigan yaxshiliginiz bir odamga qilsangiz xo'b savobga qolar edingiz, - dedi Osiyo opa o'tininqirab.
- Kimga ekan, men taniymanmi, o'zi? - dedi Xolbek aka bu dabdurust gapdan hayron qolib.
- Taniysiz, - dedi Osiyo opa.
- O'zi-chi, til-zaboni yo'qmi o'zining? Sizni o'rtaga qo'ymasa? - dedi Xolbek aka negadir qiqirlab kulib. (Birov yordam so'rab kirma, u kishining shunaqa eshilib ketadigan odati bor edi.)

Hozir ham oromkursida taltayinqirab o'tirganicha oyoqlarini cho'zib, ikki qo'lini ikki yonga tashlab yuborgan edi.

- Birov o'rtaga tush degan joyi yo'q, Xolbek aka. O'zimcha so'rayapman, - dedi Osiyo opa stol ustini kafti ila sidiribmi, artibmi.
- O'zimcha? Iy, gBTalati-ku, o'ziz qolib, birovga so'rab yursangiz, - Xolbek aka ko'zlarini yumib, boshlarini sarak-sarak qilgancha ta'sirlanib-ta'sirlanib kula boshladi. - Anoyimisz, nima balo?!
- Eshiting-da, Xolbek aka, - dedi kutilmaganda opa zardaliroq qilib. - Sizday odam bor joyda nohaqlik bo'lsa, yaxshimas-da. To'gbTrimi?
- Iy, qiziq-ku. Qanaqa nohaqlik? Qolaversa, men kim bo'pman? - dedi Xolbek aka qizishibroq. U gap o'zani bu yoqqa burilishini kutmagan shekilli "Voy, Osiyo xonim-ey. Shunaqa deng-a? Men kim bo'pman?" deb qo'yari ed.

- Sizmi, Yusufbekxojining chevarasisiz. Xojining esa kimligini yaxshi bilasiz, - dedi kutilmaganda opa.

Birdan Xolbek aka ang-tang qolgancha, qotib qoldi. Ko'rib turibman, uning yuzi qorayib, qo'ngBTirtob tusga kirgancha qolgan, o'zi Osiyo opani endi ko'rayotgandek tikilgancha tosh qotgan edi. Bu tarixni eshitayotgan o'zim-chi, undan kam lol emasdum: Qurang-a, kimlarning surriyotiyl avlodi bilan ishlayotgan ekanmiz, derdim.1 Ammo u:

- Siz nima deyayotganingizni bilasizmi o'zi? - dedi anchadan keyin ovoz bitib. O'zi esa turib ketarini ham, qolarini ham bilib bo'lmasi. Men Xolbek akani bu holatda birinchi marta ko'rib turishim edi, qarshisida Osiyo opadan bo'lak odam bo'lsa, nima deyarini o'zi biladigandek edi.

- Nega bilmayin, Xolbek aka. Siz o'shalarga tortib borayotganingiz bilan biz faxrlanib yuramiz-ku, - dedi u. - Shundan haddim sigBTib, shu gapni sizga aytayapman-da. Yetimlarga siz muruvvat qilmasangiz, kim qiladi, Xolbek aka?

- Xo'-o'v, Osiyoxon-Osiyoxon. Sen meni jon-joyimdan olding-ku, jon-joyimdan, - dedi Xolbek aka kutilmaganda uni sensirab va bosh chayqab-chayqab. - Hamma menga oson tutsayam, sen tutma, Osiyo. Menga qolsa, bilasanmi, Osiyo, nima qillardim: hech kimning ko'zyoshini oqizishga qo'ymasdim. Qo'ydirmasdim! Na ilojki, ixtiyor mendamas. Qolaversa, biz sen aytgan, nomlarini tilga olgan buvalarimizning tirnogBTiga arzimaymiz! Nima qilibmizki, Xolbek nomini ko'tarib yuribmiz?! Yodgor o'gbTli nomida yuribmiz?! Sen mening xasrat qutimni, shon qutimni, hammadan sir tutgan asror qutimni ertalabdan ochib yubording, Osiyo. Men istamaymanmi, qutidoru Yusufbekxojidek buva-kalonalarimizga o'xshab muruvvatpesha bo'lib yashashni? Ammo unga qani imkon, qani sharoit? Na qilaylikki, Osiyo, toleimiz shunday past yaralmish?! Balki men adashayotgandirman, izdan chiqib ketgandirman. Lekin ilojim qancha, qahri qattiq, xo'mraygan bir zot, o'zini kulib yenggan, nafs bandasi qilib ko'rsatgan qiyofada yashashga majburman, Osiyo. Hamma tushummasa ham sen tushunarsan, deb o'ylayman... Ha, darvoqe, kimga muruvvat qilmoq kerakligini aytmoqchi eding? Ko'nglim mumdek erigan chogBTda aytib qol. Keyin kech bo'lmasin.

- O'sha qalamni o'tkur mirzoni, sizning yurtingizga borib ishlab kelgan yigitni aytaman, - dedi opa kutilmaganda mening nomimni tilga olib, o'ngBTaysizlikdan turib ketarimni ham, qayooqa qocharimni ham bilmasdum men.

- Ha, ungami, ichidagi alamini sezdirib qo'ygan anuv mirzogami? - dedi Xolbek aka eslab. - Uning aybi bitta - bizga o'xshamaydi, - dediyu u tura boshladi.

- Nima qilsin, kirsinmi? - dedi Osiyo opa ham qo'zgbTobil.

U kishi yarim yo'lga borib o'girildi:

- Mayli, - dedi bo'gbTiq bir tovushda, - ammo aytib qo'y, qadamini bilib bossin. Bunaqada qalamini sindirib qo'yadi. Qalam esa, har kimga ham berilvermaydi.

- Xo'p, Xolbek akajon, aytaman, tayinlab-tayinlab aytaman. Illohim, dunyo turguncha turing, - deb azza-bazza ortidan duo qila boshladi opa.

U kishi eshikka yetganda yana to'xtadi:

- Shu gap shu yerda qoldi. Qolaversa, boyagi gaplaram 1? - dedi o'tingandek.
- Bo'lmasa-chi, Xolbek aka. Siz meni endi ko'rayotganingiz yo'q-ku, - dedi opa.
- Devorni ham qulogb^hi bor deyman-da, - deb u kishi chiqdi.

Men - devorning qulogb^hi esa, chiqar tugul, qimirlashga madorim yetmay turganimcha turar edim. Ammo yuzlarimdan oqib tushayotgan shashqator yoshlarni na to'xtata olardim, na adogs^hi ko'rindi.

Allohdan chevarroq kim bor, qori aka?!

"Bismillahir Rohmanir Rohiy. Vas solatu vassalamu ala rasulillah. Ammo ba'd.

Xatingizni oldim, qori aka. Diyorga safarni hatto safardoshlardan sir tutmoq lozim bo'ldi. Ko'z tegmasin, Bahriiddin yetilibdi. U hatto yollab jo'natgan kishilariga-da mening kimligimni aytmabdi. Shu gung qulimizni ola keting, biz uchun aziz diyorni suvratga tushirib kelsin. Mana bu, xarita, biz yashagan joy-manzillar, mumkin bo'lsa, izlab ko'rarsiz, debdi.

Shu sababga ko'ra, Sizga-da ma'lum etolmadik. Ma'zur tutgaysiz.

Diyorga boraringizni bilsam, yolgb^hiz tomirimga duo-lar yo'lllagay edim, debsiz. O'zimning ham Andijon tomonlarga o'tish niyatim bor edi, afsus, yo'l tushmadi. Sizning yolgb^hiz Yodgoringiz bo'y-bastini ko'rmoq, sizni xursand qilarlik bir xabarlar keltirmoq ilojini topmadim, uzr. Qolaversa, men birovning qora quli, Allohning bir "gung-soqov" bandasi qiyofasida edim. Izni-ixtiyormi o'zimda bo'lganida, balki qaytmasmi edim, umrbodga qolarmi edim vatanda! Ammo diyorda qolib bo'lmadi! Jondan aziz yaqinlarimga jabr qilib qo'yimogb^him mumkin edi.

Taqdirning turfa o'yinlarini ko'ringki, qori aka, Vatan jamoliga yetishdim deganda unga sigb^hmay turardim, begonadek his qillardim o'zimni. Qandoq qurilgan ekan bu dunyo?! Allohning ko'rsatganiga shukr etib, jim-jim qaytmoqdan o'zga iloj yo'q edi. Hayratlanarli biron narsa ko'rdingmu, deb so'rabsiz.

Oh, qay birini aytay?! Vatanning har qarichib^h B^h misoli bir jannat edi! Uni bir bora ko'rmoq uchun jon nisor etsa arzigay edi! Umrbod sarson-sargardon yurganlaring, begona yurtlarda darbadar kezganlaringga rozi ketmoq mumkin edi! Diyorda qori aka, har qadamda jannah islarini tuymoq mumkin edi. Har soniyada bir yigb^h lab, bo'shanmoq mumkin edi. Bu yigb^higa, u ko'zyoshlariga hech narsani tenglashtirib bo'lmasdi.

Faqat bir afsus, bir armon yurakni o'rtaydi: farzand bo'lib tugb^hilib, bu diyorga nima qilib beroldik? Ro'shnolik chirogb^hini yoqmoqchi edik - yoqoldikmi, Alloh rozi bo'ladirgan bir ishlar qilmoqchi edik - qiloldikmi, mana shular tinchlik bermasdi, o'rtab qo'ymasdi. Yaxshiyam "gung-soqov" bo'lib ketganim, damim ichimda, alamimni ko'zyoshlarimdan olardim, xolos.

Yana bir gap.

Biz ham o'zimizni mujohid sanab yuribmiz ekan, qori aka. Bilasizmi, borganimdan kelgunimcha bolalikda ko'rganim bir voqeа hech ko'z o'ngimdan ketmaB^h-sa-ya!..

O'sha bolaligimizda qishloqning eng chekkasida yolgb^hiz bir xonadon bo'lguchi edi: atrofi uch paxsa devor bilan o'ralgani kamdek, o'ngib ketgan darvozasi hamisha berk - quflflogb^hiliq turar edi. Uning qulfi zang-lab, qorayib ketgan, qachon ochilganini ham hech kim eslay olmasdi. Kaliti soyga tashlab yuborilgan deyishardi kattalar. Nega, biz hech tushunib yetmasdik. O'sha tuproqtomli, pastak uyga odam zoti kirib-chiqmas, bizni ham yaqin yo'latishmas edi.

"Borako'rma, o'lasan! U yerda yakkamoxovlar yashashadi! Nima, senam yakkamoxov bo'lib qolmoqchimisan?" deb so'kib haydashgani-haydashgan edi.

Lekin bizga qiziq edi. Bu yoqdan haydashsa, u yoqdan aylanib borib, tomosha qillardik. O'sha yassi tomiga orqa tomondan chiqib yotib olardik-da, yakkamoxov - er-xotinning uydan chiqishlarini kutardik.

Bir mahal yuz-ko'zlarigacha o'ranib olgan ajinadek bir ayol chiqardiyu bizni ko'ra derazalariga latta-lutta tutib tashlangan uyiga urib ketardi yana! Keyin soch-soqoli o'sib, patak bogb^h lab ketgan barzangi eri chiqib, qo'liga ilingan narsani tomga otganicha, bizni bo'ralab so'kib haydashga tushar edi. Qochmay ko'r-chi!

Biz qay birimiz tomdan tashlab, qay birimiz qorinlarimiz tilinib, bo'gb^hotga osilib qolar edik.

- Yo'qollaring, otib tashlayman! Joningda umiding bormi, ahmoqlar! - deb baqirardi ortimiz-dan u.

Qayda, sal nari borib, biqinib turib, uni o'chishi ila yana qayta tomga tirmashardik. Qiziq-da: ekmasa, tikmasa, soyga suvg'a chiqmasa. Birovlar nahraga qo'yib ketgan nommi, sut bilan kun ko'rsa. Yashab bo'ladi ekanmi shunday?!

Eri togb^hdan tushib kelgan, soppa-sogb^h edi. "Bosmachi"lar orasida yurib-yurib kelsaki, xotini bunday dardga yo'liqib, hech kimga aralasholmay qopti. U shu qolgancha qolib ketdi, irganmay ham yashayapti edi. Qarang-a, moxov bilan ham yashash mumkin ekan! Qirqma miltigb^hini yelkasiga osib ketvorsa - togb^hdagи sheriklariga qo'shilib ketsa, kim nima derdi?! Ketmadi! Shu ketmagani qiziq edi bizga! Yassi tomga yotvolib, uning hovlida xotiniga, o'ziga dori tayyorlashiga termulganimiz-termulgan edi. U esa, hovlidagi yolgb^hiz sariq anjir soyasida o'tirvolib, tabibchiligini boshlardi. Ya'ni biz avvalgi kunlari eski devorlar tag-kavaklaridan terib kelgan bosh barmoqdek-bosh barmoqdek chayonlarni shisha bonkadan bittalab tushirib, qo'liga olardi-da, (qo'rqmagani uning! Chaqib oladiyam demasdi!) boshini boshmaldogb^h bilan o'rta barmoqg^h orasiga olib, eza boshlardi.

Shunda deng, chayon dumini gajak qilib, nishini urarga joy izlab qolardi. U esa, chapdastlik bilan sutli kosaning chetini tutardi.

Shunda chayon kosa chetiga nishini urib, zaharini to'kar, keyin o'sha sutni avval xotini, so'ng o'zi simirib icha boshlar edilar! Voh, qanday dahshat! Chayon zahrini ichsalar-a! Biz yotgan yerimizdan tura qocha boshlardi.

Ana o'sha moxov xotinidan kechib ketolmagan qora soqolli odam, uning sutga zahar solib dari tayyorlashlari butun safar davomida ko'z oldimdan ketmasa-ya, qori aka! Bolalikda uncha anglab yetmagan ekanmiz. Shuncha yillar kechib, endi uning kimligi menga ma'lum bo'lib borayotgandek edi!

O'zingiz aytin, qori aka, ahli ayolining boshiga o'shandek qora kun tushgan chogb^hda ham uni tashlab ketmagan, undan irganmagan, oxirigacha bir tom ostida yashashga ko'ngan kishi oldida biz kimmiz, kim bo'bmiz?! Ana uni mujohid desa bo'lar!

Balki shuning uchun butun safar davomida ko'z o'ngimdan ketmagandir. Nima bo'lganda ham Allohning hikmatiga tushunib yetmoq dushvor edi, qori aka.

Qolaversa, bu xatni yozmogb^himdan murod - o'sha safar chogb^hida yana bir odam uchradi, uni sizga aytmasam bo'lmas.

Chunki uni siz bizdan yaxshiroq bilasiz. Ha-ha, o'sha sizning haloskoringiz, Miyonko'lдagi qatl omda shuncha qori ichidan sizni qutqarib qolgan nobakor shogirdingiz edi u. Kelib-kelib nega u menga yo'liqdi, o'zim hayronman. Yo bu ham Allohning chevarligi, xos hikmatlarini bir-bir ma'lum qilmogb^h edi? Bilasizmi, men uni qaerda uchratdim? Toshkentning qoq markazida, o'sha Piyonbozor o'rnida qurilmish mashhur mehmonxonasi oldida uchratdim, qori aka.

Oqshom edi. Ko'chaning u betidagi teatr maydonida odamlar sollanib kezishar, favvora shovvasi tinim bilmay tepaga otilib yotar, faraxli bir pallada o'sha aziz manzaralardan ko'z uzolmay o'tirarkanman, eski gazetalar taxlamini orqalagan bir bedavo ko'chani kesib o'ta boshladi. Uning egnida rangi unniqib ketgan bir ko'k movut kitel-shim, belida qo'sha-qo'sha yagb'Tiri chiqqan belbogb'Tlar, peshonasini ham o'shanday bir latta bilan tangb'Tigan, oyogb'Tiga esa kimlardan qolgan ko'n etikni kiyib olgancha kelmoqda edi. Kuni bilan biz tomonga hech kimni yo'latmagan melisa yigitlar ham charchashgan shekilli, unga orqa o'girib, o'zlarini ko'rmaganga solib turishar, bedavo esa to'gb'Tri biz tomonga kelmoqda edi. Yelkasidagi kamdek, katta bir gazeta bogb'Tlamini bilagiga ilgancha (u har qadamda tizzasiga urilib chir aylansa ham parvo qilmas), o'zi bir narsadan quruq qoladigandek shu tomonga yer suzib kelar edi. U shu atrofning sangb'Ti - devonasi shekilli, birov qayrilib boqmas edi. Mening esa, (tanimabman avvaliga!) ichim achib boryapti. Shu atrofda gazet chiqaradigan gazetxonalar bor, shu dargohlarning tuzini yalab o'tgan mirzo ekanmi, qariganida xor bo'pti-ku, deyman. Ammo kitel-shimidan bo'lak toifaga o'xshaydi. Kim bo'lsa ekan, boyaqish? Bu orada u men o'tirgan joyga yetib kelib qoldi. Orada nechtadir zina bor, shu kelishida yukini yerga qo'ymasa, men o'tirgan o'rindiq oldiga kelib to'xtashi, yukini qo'yib, nafas rostlashi tayin edi. O'zi ham qora terga tushib ketipti. Nima zaril ekan, shuncha taxlam narsani ko'tarib yurish?!

Yo'q, devona birinchi zinadayoq yukiga qoqilib, cho'kkalab qoldi. Orqasidagi yuki esa, boshidan oshib tushib, chizimchasimi, nimasi cho'rt uzilib ketdiyu o'zi sochilib, yer bilan bitta bo'lidi! Ana shunda u ortidan it quvgan devonadek hovliqib matohlarini tera ketdiyu men uni yaqindan ko'rib, hang-mang qoldim. U o'zimizning baqiroq Akmal o'risimiz, otdan tushsayam, egardon tushmaydigan chulchutimiz edi, qori aka.

Boya bir tomonga siltanib yurib, sal oqsab kelayotgandi, shundan ham tanimabman. Hozir qarib, yana ham xarob tortgan, men uni maymundan battar xunuk yuzidan tanib qolgan edim.

"Ha, Akmal aka? Bu yerlarda nima qilib yuribsiz?" deb yuborishimga bir bahya qolgan edi.

So'nggi damda tilimni tishlab, damim ichimda jim qola qoldim. Men kinochilarga yollanib kelgan kimning qora quli (zanjidan battar odam) uni tanishim mumkin emasdi! Buning ustiga "gung"man! Borib-kelib uni uchratgan yerimni qarang!

Yaxshiyam u esi kirarl-chiqarli bir odam, meni tanimadi. Tanib qolgandami, ko'rardingiz tomoshani! Yalab-yulqab o'pa ketsami, quchoqlab olsami - badnom qilardi odamni. Shuncha toat-ibodatlarimni bir pul qilardi! Yo'q, Xudoga ming qatla shurkrki, tanimadi.

Matohlarini hovliqa-hovliqa terib-bogb'Tlarkan, irgangandek bir qarab qo'ydiyu, yana uni yelkasiga ortmoqlab, so'kinib-netgancha bosmaxona tomonga keta boshladi.

Men hayron edim: u bu yerlarda nima qilib, tentirab yuribdi? Nima izlaydi? Yo qachondir shu atrofdagi biron idoraga bogb'Tlanganu endi uni izlab topolmaydimi? Yelkasidagi gazetlari nimasi? Nega uni hech kimga ishonmay ortmoqlab yuribdi? Shunda Siz sarhadden narida aytib bergen tarix yalt etib yodimga tushsa-ya! Miyonko'l fojiasi, qancha qoriyu qurrolarni, Qur'oni yod olib, ko'ksiga joylagan kishilarni o'zimizni chulchutlar so'ygani yodimga tushib ketsa-ya! Bu axir o'sha shogirdiz edi, qorilarning bo'yninga tigb'T tortib, dudama bilan ularni shahidlik maqomiga yetkazgan kishi!..

Sopi o'zidan chiqarilgan bir jallod o'shanday kunda Sizni tanib qolib:

- Ie, ustoz, Siz bu yerda ma'qib yuribsiz? Yo'q, bu kishi bulardan emas! Men kafilman, kafilikkha o'taman, - deb Sizni chiqarib yuborishi, naqd o'lidan olib qoluvini qanday tushunmoq kerak, qori aka?

Yo bu ham Allohning xos hikmatlaridan birimi? Bandasi anglab yetolmaydigan?.. Balki. Axir aytadilar-ku qirq yil qirgb'Tin bo'lsa, ajali yetgan o'ladi deb.

Akmal o'risning bunday holga tushib yurushi-chi? Bu ham bejiz emasdир? O'sha qo'ydek bo'gb'Tizlangan qorilarning qoni tutmasa, kishi bu holga tushmasa kerak edi!..

Yo shu atrofda bir vaqtlar o'sha ishga undagan bir mahkama bo'lganmiki, u o'shani izlab sargardon tentiragan devonaga ham o'xshar edi. Balki men yanglishayotgandirman, boshqa bir gazet jinnisini Akmal o'risiga o'xshatib yuborgandirman. Lekin maymundek xunuk, tasb'T-qara basharasi hech ko'z o'ngimdan ketmasdi.

Alloh har bandani shu kuya tushmoqdan O'zi asrasin! Oxiratda ko'radiganlarining uchqunini bu dunyodayoq ko'rsatib qo'yganga o'xshar edi, tavba.

Shom tushib kelar, shahar o'rtasida qaydandir achchiq kuyindi hidi anqib-anqib kelar edi. Diyorga bunday bo'ylnarni ravo ko'rmanan bir quli - men alamimni ichimga qult-qult yutib o'lтирар edi.

Alloh hammamizga O'zi to'zim bersin, qori aka. Nazarimda, diyorga qaytmoq fasliga hali erta shekilli. Balki men adashayotgandirman. Ilohim, adashgan bo'lay.

Addoyi Sultonmurodingiz

Jidda".

Astrobo'd etilmish ulugb'Tlardan biri

Qurt dahaga kirgandek hammamiz o'z stolimizga muk tushib, ishga kirishib ketgan ekanmiz, qitir-qitir bilan yozuvimizni yozib yotsak, qo'ngb'Tiroq jiringlab qoldi.

Mudirimiz telefon qulogb'Tini istar-istamas olib, jindek firoq, jindek zarda ila:

- Lab-bay? - dedi.

Keyin eshitib turib-turib:

- Bor, bor, - dediyu go'shakni o'zidan chetga olib, - ko'zi uchib turibdi o'ziyam, - deganicha menga qaradi, - Akayiz...

Boshimga dovr jimirlov yugurib, taxta bo'lib qolayozdim! Qanaqasiga akam bo'lsin?! Yana keptimi?! Xayolim Sultonmurod akamga ketibdi! Dovdirab turganimni ko'rib, mudirim yumshadi:

- Olim akayizmush. Shunaqa akangiz ham bormi?

- Shunday demaysizmi! Esimni chiqarib yubordingiz-ku, - dedim o'rnimdan tura boshlab.

- Ha-a, xayoliz anuv akayizga... ketibdimi? - dedi u menga achininqirab.

Hamma gapni bularga aytib bo'larmidi! Ayniqsa, anuv "feleton voqeasi" dan keyin. Tushungan unday deydi, tushunmagan bunday. Ustiga-ustak akamga o'xshab chetda qolib ketganlarga qayishib-ku, o'zim badargb'Ta bo'lib ketishimga bir bahya qoldi. Kimlar o'rta tushib, kimlar kafil turib, joyimda zo'rgb'Ta ilinib qoldim. Yana xayolim qochganini qarang. Bunaqada bir kunmas bir kun pand yeb qolishim tayin. Olim akam ham qiziq, shu yoqqa qo'ngb'Tiroq qilib yurmay, uyg'a o'ta qolsa bo'ladi-ku! Nima gapi borakan?

Hayiqibgina telefon qulogbini qo'limga oldim:

- Labbay?
- E, Maqsud, bormisan? Suyunchini chiqaraver, biz ketyapmiz, - dedi Olim akam tomdan tarasha tushgandek qilib. O'lay agar, biron nima tushungan bo'lsam!
- Qayoqqa-qayoqqa?

U sharaqlab kulib yubordi:

- E, pakana pari, pakana pari - xayolimdan ketmaydi nari! Unutdingmi, anuv kungi gaplarni? Ijozat tegdi. O'zim olib ketyapman To'ramning o'gbillarini...

- Shoshmang, shoshmang, Yodgor-chi, kennoyim-chi?- dedim nafasim ichimga tushib.

Hozirgina vahimasi olamni buzay deb turgan Olim akam yamlanib qolgandi:

- Aytuvdim-ku... O'sha aytganimdek bo'ldi. Ruxsat tegmadi. Lekin men boshqa yo'lini topdim. Akamning boshi bir ko'kka yetsin! Asli shunga qo'ngebiroq qilyapman. Yordaming kerak, - dedi boyagi-boyagi hovliqib.

- Men-a? Meni qo'lindan nima keladi ekan? - dedim niyatiga tushunolmay.

Olim akam endi o'zini bosib, dona-dona tushuntira ketdi:

- Sizlarda Penson, Glauberzon degan suvratchilar bor-a?

- Bor. Unisi o'tib ketgan bo'lsa ham, bunisi bor. Juda yaxshi taniyman.

- O'shani opkela olasanmi?

- Qayoqqa? Siznikigami?

- Nega, o'zinglarnikiga. Taklif qilsang kelar?

- Kelardi, lekin nimaga? - dedim o'sha-o'sha hayron qolib.

- Bir donagina, zo'r suvratlari kerak. Qotirib olib bersin.

- Kimni... olib beradi?

- Ey gb'alcha, - dedi kulib Olim akam, - nega tushunmaysan! O'zlarini olib ketolmaganim-ketolmagan, jilla qursa, suvratlarini olib ketay! Axir oldiga shuncha joydan sho'ppayib bormayman-ku! Jilla qursa, ruxsoriga to'yisin, xotirjam tortsin!.. Qalay?!

Men bo'shashib tushgan edim:

- Yaxshi, men so'rab ko'ray...

- Sen yaxshilab iltimos qil. Xorijga ketayotgan odam bor, olib ketishi kerak de. Diyordor qiyomatga qolib ketmasligi uchun ham kerak de. Ular tushunadi.

Men ado bo'lgan edim: akam shunchalar omadsiz ekanmi? O'gb'alcha bir kelib... (o'zining yo'lini o'zi to'sgani kamdekl...) jigarlarini xorija chiqishdan ham mosuvo etib ketibdimi? Bu qanaqa jamiyat ekanki, otani boladan, ahli ayolidan ayirib tashlasalar, topishishga qo'ymasalar? O'zini kechirmaganlari kechirmagan, bularni uni ko'rmoqdan ham mahrum etganmilar?! Shu bilan osmon uzilib tushadi ekanmi? Muftiy domlaning ham so'zi kesmabdi-da?

- Bo'ldimi, bugun-erta opkelasanmi? Ishondim-a o'zingga? - deb telefonda shangb'alashini qo'ymasdi akam.

- Yaxshi, ketguningizcha bir amallarmiz, - dedimu telefon qulogbini sekin joyiga qo'ya qoldim.

- Tinchlikmi? - dedi mudirim ruhim tushib ketganini ko'rib.

Men tinchlik-tinchlik, dedimu joyimga borib cho'kB-dim. Ammo biron satr yozolmay, o'tirib-o'tirib, axiyri xonadan sirgb'alib chiqdim.

Glauberzonning xonasi "Kamchatka"da, kutubxona ro'parasida edi. Iltimos qilsam, yo'q demasligini bilaman. U shunaqa kichikko'ngil, yumshoqzabon odam. Qolaversa, o'ziga yaqin olib, suvratlariga ikki-uch o'zbiz so'z yozdirib yuradi. Sening tiling shirin, keyin suvrat ruhiga kira olasan, deb qo'yadi. O'zi keksa odamu negadir biz yoshlarni yaxshi ko'radi.

O'sha "Kamchatka"ga boryapsam, apparatini yelkasiga ilib, taqir boshiga yumshoq bir kungrador narsani ilgancha o'zi kelyapti.

- Salom, uzoqqa boradirgan kichkina yozuvchi. Yo'l bo'lsin? - dedi.

Men to'gb'alrisiga ko'chib qo'ya qoldim:

- Hizrni yo'qlasam bo'larkan, Sizga edi.

- Nechuk, - dedi u to'xtab, - Qaytamizmi?

- Shart emas, o'zizni ko'rdim-ku, - dedim.

- Unda nima qilishimiz kerak?

O'zimga kelganda birovdan bir narsa so'rolmasdim. Shu odatinmi tashlolmadim-tashlolmadim. Hozir ham chaynalibgina dedim:

- Bir odamga bir suvrat kerak ekan. Xorijga ola ketishiga. Shuni olib bera olasizmi?..

- Qachon, qaerda? - dedi u.

- Bugun bo'lsa, bugun, bo'lmasa, ertaga.

- Yaxshi, - dedi u yelkamga qoqib, - hozir vaqting qanaqa? Bo'sh bo'lsang, yarim soatga menga keraksan. Rosti, zo'r bir yangilik bor. Kimga ilinarimni bilmay turuvdim. Yaxshi uchrading. Boramizmi?

- Siz yur deysizu bormaymi? Nima ekan? - dedim.

U yelkamdan quchib, qulogb'alimga shipshidi.

- Kaydalovni bilasan-a?

- Zo'r rassom, - dedim men, - qotirib chizadi, o'shami?

- O'sha, - dedi ovozini ko'tarmay, - ming yillarga qoladigan bir rasm ishlab qo'yganmish. Bir odamdan nusxa ko'chirib. Bilding?

- Yo'gb'al-e, qaerda? - dedim yutaqib.

- Yuraver, ko'rasan. Mir Alisherdan bir tuki kam emasmish.

- Shunaqasi ham bo'ladi ekanmi? - dedim azbaroyi hayratlanib.

- Bo'ladi ekan-da, - dedi u ko'z qisib.

- Kim ekan, aytqoling, - dedim ichim quriy boshlab. Mening muxbirligim tutib ketgan, endi meni hech narsa undan uzolmas edi.

- O'ziyam yuz yilda bir chiqadigan ulugb'allardan emish,- deb shipshidi u, ko'zi esa, alang-jalang, yo'lakda birov yo'qmi, deb, alanglar edi. - Qolaversa, Astrobod etilmishlardan emish. Volodyaning gapi-da.

- Qaysi Volodya? - dedim tushuna olmay.

- Qaysi bo'lardi, o'sha Kaydalov-da.

- Ha-a, u bir narsani bilmasa aytmaydi, - dedim men ham. - Ketdikmi?

- Ketdik, bo'limingga tayinlab qo'y, izlab yurishmasin, - dedi u.
- Yaxshi, - deya yo'lak bo'ylab ilgariладим.

Qayoqqa ketayotganimizni aytib, pastga tushib borganimda Isoq aka oshnasining almisoqdan qolgan "Pobeda"sigiga joylashib, ikkovlashib meni kutishar edi.

Jildik. Mening savol xaltam ochilib ketgan, yol-gb'Tiz o'zim orqa o'rindiq o'rtasiga o'tirvolib, ijikilashga tushgan edim.

- Volodyaning o'zi qaerda? Hozir ustaxonasiga boramizmi? - dedim ichim qurib.

- Umi, bir haftadan beri o'sha kishinikida yotvolib ishlayapti-ku, - deb javob qildi Isoq akaning o'rniga ham shergi.

Juda-juda tushunarsiz edi:

- Yotvolib?.. Hech sogb'B yurmaydigan odam-a? Qanday bogb'Tlanib qopti?

Isoq aka boshini burib, kulimsirab qarab qo'ydi:

- Ishonasanmi, shu rasmni deb, ichishniyam tashlabdi.

- Tashlabdi?.. - Osmon uzilib tushibdi desa, ishonardim, lekin Volodyaning tashlashiga ishonib bo'lmasdi, - Yo'gb'B-e, - dedim baralla.

- Sasha, ayt, o'zini gapi-a? - dedi Isoq aka shergiga.

- Bir qultum ham olmayapti, o'shaqqqa boradigan kuni.

- Chidayapti ekanmi?

- "Ranjib qolsa, rasm chiqmaydi. O'zining hurmatidan, dinining hurmatidan shunday qilyapman. Shunda bir sir ko'rdim", deydi.

- Tavba, - dedim hayratga tushib, - O'sha Volodya shunaqa narsalarni biladikanmi?

- Uni kim deb o'ylayapsan, - dedi Glauberzon ko'rsatkich barmogb'Bini nuqib. - Hali borgin, ko'rasan. Hech kim Navoiyni bundoq chizolmagan!

Bu orada Eski Juvadan o'tib, Sebzorga qarab keta boshladik.

- O'zi qayoqqa ketyapmiz? O'sha aytgan odamiz shu tarafda turadikanmi? - dedim men.

Isoq aka bosh irgb'Bab qo'ydi:

- Borsak, ko'rasan. Hayratlarga botib yurusan, shunaqa davlatmand odam bilan bir zamonda yashayapganimizga.

Sirotkin mashinasini gb'Bij-gb'Bij odam chiqqan trolleybus ortidan solib edi, kutilmaganda uning shohi chiqib ketib, taqqa to'xtadiyu mashinamiz borib urilishiga bir bahya qoldi. Sultanib to'xtarkanmiz, Isoq akaning shergi:

- Ana, ko'ravur, qay zamonda yashayapmiz, - deb kuldji.

Keyin Taxtapulga yetmay o'ngga burilib, tanish mahalla ichiga kirib borarkanmiz, ichim gb'Burmishlab, sekin Isoq akaning yelkasiga qoqdim:

- Menga qarang, anuv mashhur tabib - To'ram taqsirnikiga ketyapgan bo'lmaylik tagb'Bin?

- Qaysi, Tibet tabiblari ham oldiga tusholmaydigan kishimi? - dedi u.

- Ha-da, qancha yil uy qamogb'Bida o'tirib, endi-endi eshigiga odam kelyapti-da.

- E, balli, Volodya qatta ekan, o'shatta-da...

Chorak soatlardan keyin biz tanish darvoza oldida to'xtab, uning bolachasidan engashib o'tib, ichkari kirib borarkanmiz, oftobshuvoqdagi yogb'Boch karavotda qo'sha-qo'sha lo'la bolishlar orasida, oldida davot-qalam, qo'lida eskicha nastaliqda bitilgan gb'Bazalmi, maktubotmi, ushlagan sersavlat qariyani ko'rib, dong qotib qopmiz. Qarshimizda rostdan ham asrlar qa'ridan labbay, deya chiqib kelgan munavvar zotlardek bir mo'ysafid o'ltirar, uning nainki oppoq sallasiyu o'ziga yarashgan qizil chakmonidan, balki bodom qaboqlaridan ham nur yogb'Bilar, rassom uni shundoqqina chizib olmogb'Bi mumkin edi...

U kishi men bilgan To'ram taqsir edilar.

Qamchingizga sallamno, qozi janoblari

"Bismillahir Rohmanir Rohiyam.

Avvalo, azimushshon Tangri taologa bu dunyoda yurgizib, turgizib, o'ziga itoatda qilib qo'ygan bandalari adadi qadar hamdu sanolar bo'lsein.

Mahbub Paygb'Bambarimizga bo'lgan muhabbatimiz sababiyu u kishining xulqlari bilan xulqlanishga intilishlarimiz qadar U zotga salovatu durudlar bo'lsein.

Shundan so'ng, qozi pochcha janoblari, bizga ko'rsatgan karamingiz vajidan o'zlariga sallamno aytarimizga ijozat bersangiz.

Avvalo, o'zimni tanitay: men o'sha sizga bo'y egib, ta'zim etmakdan bosh tortgan, buni o'ziga or bilib, gb'Bururi qo'yмаган muhojirdirman. Qancha yaxshilar o'rta ga tushganda ham uzringizni qabul etmab edim.

Yelkaga tushmish bir qamchi tufayli u diyorlarni tark etgan edik.

Eslagandirsiz?

O'sha achchiq qamchi bejiz va ham behikmat emas ekan.

Bugun men o'sha ta'zir qamchisi tufayli erishgan sharofatlarni aytaversam, ishonmassiz ham. Lekin nima chin - shu chindir. O'sha ta'zir bizga ulugb'B sharofatlar keltirganini bilsangiz edi!..

Shuni sizga kamoli ehtirom bilan ma'lum qilmoqqa ruksat etgaysiz, qozi pochcha janoblari.

O'sha qamchi bo'lmasa, (yashirmoq nega?!?) biz Xudo xohlagancha u diyorda qolmoq, fozillar jamiyatni ishini yurgizib, adolat urugb'Blarini sepmoq niyatini dilga jo etgan edik. Har qancha mashaqqatlar cheksak-da, bu ishdan qaytish niyatimiz yo'q edi. Diyordan quvilgan kishilar - vatandoshlarimizni o'z himoyamizga olmoq, imkoniyat yuz ochdi deguncha diyorga qaytarmoq rejalarini tuzmoqda edik.

Qamchi busiz ham o'ksik qalbimizni yomon yaralab, niyatlarimizni puchga chiqargandek edi, biz u diyorni tashlab chiqmoqqa majbur bo'lgandik.

Uzr, qozi pochcha. Muhojirlarni ansorlar kabi bagb'Briga olgan bir yurt nechuk ta'zir qamchisiga muhtoj bo'lib qolibdi, deb xafalanibmiz-u, otdan tushib uzr aytmoqqa hozirlangan siz janoblarni tushunmabmiz. Jahl kelganda aql qochibdi. Ammo keyin bilsak, bizning aytganimizmas, Allohnning xohlashi ustun kelmoqda ekan. Men buni Makkaga yetib, tavof maydoniga tushganimda, Allohnning uyini ikki aylanib kelib, tavof chizibg'Biga yetgan joyimda, ko'k chiziq ustida to'xtab, Hajarul asvad tomon duoga qo'l ochgan kezimda anglab qoldim. Uyatlu va shirin bir his qamrab kelib deng, jonus jahonimni o'rtamoqqa boshlagan edi... .

O'sha achchiq qamchi bo'lmasa, bu xat qayda ediyu biz qaerda edik?! Shu yerlarga yeta bilarmidik hech zamonda? Alloh

subhanahu va taologa sallamnolar bo'l sinki, bir qamchi ila iqbol eshigini ochib, bizni bu yoqlarga yo'llab qo'yibdi. Umrbod O'ziga taqvo qilib o'tayotgan zotlar qolib, biz Alloh uyiga yetib kelib tursak, minnatdorchiligidimizni qay til ila izhor etaylik sizga, qozi pochcha janoblari? Negaki, o'sha kuni o'sha soat, o'sha holatda sizga ro'baro' kelmasak, bu haj qayoqda ediyu, bu tavof qayoqda edi!

Ich-ichimdan bir yigb'Thi, bir o'ksik bosib kelib, o'zimni tutolmay qolgan edim o'sha pallada... Qaysi xizmatlarimiz Allohg'a xush kelibdiyu U O'z uyi - Ka'batullohg'a chorlab chaqiribdi.

Sizsiz bu sharafga yetishmoq dushvor edi, qozi pochcha.

Ta'zir qamchingizga sallamnolar bo'l sin! Tasannolar bo'l sin! Usiz hidoyat yo'li qayda ediyu, iqbol eshigi qayda edi?!

Ijozat eting, Ibrohim maqomiga o'tib, o'tgan ustozlariz, volidayu validilariz haqqiga duoda bo'l sam. Shu tabarruk maydonda Qur'on xatm etib, azizlaringiz haqqiga bagb'Tishlasam.

Men o'sha uzringizni qabul etdim. Agar banogoh yoningizda bo'lib qolsam, qamchi haqqini talab qilgan va Paygb'Bambarimiz alayhissalom muhri nubuvvatlarini o'paketgan sahaba singari yuzlaringizga yuzlarimni bosib, bir xumordan chiqqan bo'lar edim. Sizga-da bizning yo'limizni berib, bu yoqlarga chaqirsin. O'zi aziz ko'rib, xorliklardan, xo'rliklardan asrasin.

Kimni u aziz etibdir - butun dunyo birlashsa-da, xor etolmas. Kimni u xor ko'ribdir - barcha inson u taraf bo'l sin - baxtli etolmas. Umidim bor diyorda qolgan azizlarim bilan shu sogb'Tinch diyorida ko'rishmoqqa, topishmoqqa. Qay bir hislar shundan darak bergandek bo'l larlar. Ilohim, rost chiqsin.

Sizga barcha izzat-ikrom egasi Allohimdan har ikki dunyo saodatini tilab qolaman, qozi pochcha janoblari.

Duogo'yingiz

Sultonmuroddan deb bilgaysiz.

Makkai mukarrama".

Dunyo turguncha turadirgan bir ish

"Ayollar saltanati"da edim. Biz mashbyuroni ham ba'zan shu nom bilan ataymiz. U yerda nuqul mashinkachi qiz-juvonlar ishlashadi va ko'pincha biz numerga tushadigan qistalang ishlarni aytib turib yozdirgani bu saltanatga kiramiz.

Ishimni Gulsum opaga yozdirayotgan edim, telefonga yaqin o'tirgan juvon:

- Hoy, mirzo yigit, astaroq aytavering, ko'z tegadi. Baribir sizni shahar telefoniga chaqirishyapti ekan, - deb qoldi.

Ishni beliga tepishganidan ogb'Thrindim-u, lekin buni qilcha sezdirmay o'rnimdan turdim. Yo'lakay Gulsum opaga uzr, juvonga rahmat aytib chiqdim.

Borsam ayolim:

- Adasi, assalomu alaykum, uzr, menman, - deb turibdi telefonda. U huda-behudaga qo'ngb'Tiroq qilavermasdi.

- Nima gap, tinchlikmi? - dedim alik olishni ham unutib.

- Oyimla o'zini chaqiring deyaptila. Kelib ketmasangiz bo'l maydi shekilli, adasi.

- Yo'gb'B-e, shuncha qistalang ishlaram turib-a? - dedim qanday javob so'rashni xayolimga ham keltira olmay: axir terishga tushadigan narsalarni topshirmay qayoqqa boraman?! - Nimaga ekan o'zi? - dedim tubiga yeta olmay.

Ayolim bu paytda yalinishga tushgan edi:

- Jon, adasi, baraka topgur, adasi, jindek vaqtizzi ayamang...

- Vey inson, men ishdaman, tushunasizmi?

Birdan u jim bo'lib qoldi. Tushundi desam, miq etib ovoz berib qo'yaydi.

- Meni ishim - o'yinchoq, oydinda oyogb'Tim bilan yozib tashlaydigan narsalar, deb o'ylaysizlar shekilli?- dedim kamiga.

- Voy, adasi, kim shunaqa deyapti? Kim oson tutyapti sizga?

- Oson tutmasangiz tushuninglar-da.

- Yaxshi, - dedi u murosai madoraga ko'chib, - Oyimlaga nima dey? Kelolmasakanla deymi?

U meni nozik joyimdan ushlagan edi. Hamma-hamma bilan men oyimlarning gaplarini ikkita qila olmasdim. Xotinim ham shuni bilib turib so'ramoqda, men past tushishga majbur edim. Qolaversa, ichim gb'Turmishlashga boshlagan edi:

- Xo'p, nimaga chaqiryapsizlar o'zi? Aytsa bo'l adimi?

- Kim bekordan-bekorga chaqiradi, adasi. U tomondan mehmonla kelib o'tirishibdi, axir.

- Qanaqa-qanaqa? U tomoniz nimasi? - dedim tasavvur etolmay.

- Kennoyizzi yurtlaridan, Yodgormuroddizzi togb'Talari... So'rabs-o'rabs, topib kelishibdi, axir.

- Qayoqdan-qayoqdan? Hov o'sha yoqdan-a? Endi-ya? - deb yubordim. Rosti, esim teskari bo'lib ketayozgan edi.

- Ha, adasi. Tangritogs' deysizlarmi, o'sha yoqdan kelib, obketamiz deb o'tirishibdi. Pochchayam shu yerdalar.

- Pochcha? U kishi nima qilib bu ishga aralashib yuribdilar?

- Qo'yarda-qo'yay olib kelishibdi.

Xushim boshimdan uchib urishib berdim:

- Esi joyidami o'sha togb'Talarining?! Qanday opketisharkan? Kim rozi bo'ladi ekan?

- O'shaning uchun sizni so'rashyapti-da, adasi.

Rosti, birpas nima deyarimu nima qilarimni bilmay qoldim. Nega endi kelib-kelib men "javoblarini" berishim kerak? Esimni yeb qo'yibmanmi men bu ishga aralashib? Qolaversa, akamning daragi chiqib, elchilar kelib turganda-ya? Shunaqa paytda javob berib yuborib bo'larkanmi?! Yo'q! Ovora bo'l adilar.

Men uzil-kesil kesib gapirdim:

- Kennoyimlarga aytинг, shuncha o'tirgan - endiyam qum-toshdek o'tirib tursinlar. Akamning rozilgisiz hech kim hech yoqqa ketolmaydi!

- Voy, adasi, kelib shu gapizzi o'ziz aytинг-da.

- Aytaman ham!..

Men ishlarimni tashlab, "uchib-elib" borganimda ular peshayvonda bir ayvon bo'lib o'tirishar, endigina osh suzib keltirilgan edi. Salom berib, kirib bordim:

- Uni qarang, uni qarang. Hizrni yo'qlasak bo'larkan-a. Qaynonang xo'b suygan ekanmi seni! Kel, jiyan, kel. Qani, omonlashib qo'yaylik, - deb pochcha o'tirgan joylaridan quchoq ochib qo'llarini cho'zdilar. So'ng o'zlaridan mushk-anbar islarini taratib bagb'Tirlariga tortdilar. - Oh-oh, bo'yлaringdan sening. Mirzolarning mirzosi bo'b ketgan mishsan. Katta dargohlarda izzating

o'zingga yetarluvmish. Tuf-tuf, ko'z tegmasin. Allohim o'zi bundanam azizu mukarram etsin, boshqalarga ham sening yo'lingni bersin.

Bunga sari men o'ngsə haysizlanib ketyapman, bagbəirlaridan qanday chiqish, qanday uzelishni bilmayman. Nega bunday alqay ketdilar, bu maqtovlar nega kerak - hech tushuna olmayapman. Balki anavi uzoq yurtdan kelgan qudalar oldida, Yodgorning togbəlari oldida atay oshirib-toshirayotgandirlar, shundan so'raysizlar javobni demoqchidirlar. Kechagida kimlarning qo'llovi, kafilligi bilan zo'rgbə o'z vazifasida ilinib qolgan mendek bir mirzodan kim yasamoqchilar - hech tushunib yetolmayman... Axiyri mehmonlar bilan birma-bir so'rashib chiqib, Yodgorning yoniga cho'kdum.

Pochcha duo qilib, oshga qistadilar:

- Qani-qani, mehmonlar, taomni mahtal qilmaylik, mana men boshladim, - deb boshlab berdilar.

Ayollar ichkariga kirib ketishgan, nimagadir serbardan serbar oq shoyi ro'mollarini o'rav, uchini yelkalaridan oshirib tashlagan kennoyim uchib-qo'nib xizmat qilib yurar, hali qatiq, hali achchiq-chuchuk olib kirar, piyolalarga choy quyib uzatar-da, yana chiqar edilar. Yodgor esa, umrida endi ko'rayotgan togbəlalaridan ko'z uzolmas, nimalarnidir ijikilab so'ragisi kelar-u, jur'at etolmas, o'zi ham bo'yи cho'zilib, tovshi rasta bo'la boshlaganidan allaqanday tortinchoq bo'lib qolgan edi. Men esam oshga qistash bahonasida ro'paramda o'tirgan mehmonlarning (ular ikki kishi edilar, biri soqol-murtiga "qirov inib", sochlari ham chakkasidan oqarib kela boshlagan, ammo yuzlari togbə shamollarida qorato'ri tortgan, baquvvat, ikkinchisi men tengi, ozgbəlin, ammo chayir bir yigit edilar) o'sha ulugbərog'biya razm solib-razm solib qararkanman, kennoyimga xeshligining belgilarini izlar edim. Ular kennoyimga o'xshab kamgap-kamsuququm, tortinchoqdan-tortinchoq edilar. Qolaversa, musofirchilikning issiqsovugbəlini xo'b totgan odamlarga o'xshab, bosiq-vazmin tortib o'ltilishar, o'n qistaganda laganga bir qo'l uzatib qo'yishar edi.

- Hoy, baraka topkurlar, sizlarning sharofatingiz bilan yozilgan bu dasturxon. Olishib o'tiringlar-da bunday. Necha yilning badalida bir kepqopsizlar,- deb ora-chora qistab qo'yadilar pochcha ham. - Nima, jiyanni topganinglardan xursand emasmisizlar?!

- Nega, olvutmiz-olvutmiz. Qarab o'tiruppix, xursandmuz, - deyishadiyu yana xijolatlarga botib bir-birlariga qarab qo'yishadi.

- Qarab o'tirish kam, katta-katta olish kerak bu oshni. Uni o'z nomi bilan: osh - ko'tarma bosh, deganlar, - deb hammani kuldiradilar pochcha.

Shunday gangur-gungur bilan osh yeb bitirilib, lagan olinar mahal dasturxonga fotiha qilindi. So'ng hazmi taomga qovun so'yib kiritishdi. Pochcha uning ham maqtovini keltirdilar:

- Voh-vo-oh, asal tortib ketipti-ku! Bay-bay-bay, qay kungay yerda bitgan ekan? Ekkanga ham balli, tikkanga ham balli.

- Buni shuncha qovunlar ichidan tanlab topganga-chi, shundan shu yoqqa ko'tarib kelganga-chi, pochcha? - deb hazillashdim men.

- Olganga ham balli, sotganga ham balli, - deb kuldirdilar u kishi.

Shundan so'ng po'choq to'la laganni ko'tarib, Yodgor chiqdi ham; pochcha bir chetdagi piyolalarini olib, chert-gancha menga uzatdilar:

- Ana endi Maqsudxo'jam, choydan bosib-bosib quysan. Taomil shunday: shirin qovundan keyin issiq-issiq choy, deganlar.

Mehmonlarga ham quy, yo'lga chiqishadi ekan, vaqt-bemahal bezovta etib yurmasin.

- Kelishmasdan qayoqqa borishadi, bugun biznikida qolaverishadi, - dedim men.

- Me'mandarchiluk uchun rahmat. Yeduk-ichduk. Endu bizga juvob berusizlar. Yetub oluvimiz kerak, - de-di soqol-murtiga oq oralab, yoshi bir qoraga borib qolgan mehmon, dam pochchaga, dam menga iltijo-la boqib.

Meni esa vahm bosib kelardi: nima balo, mensiz ham ishni pishitib, bularni rozi qilib qo'yishibdi ekanmi?! Hamma uvoliyu chuvolini kim bo'yniga opti?..

Bular mendan ijozatsiz qayoqqa borishadi deb o'tiribman. Ich-ichimdan bir norozilik uygbəlonib kelmoqda edi. Lekin iloji boricha yumshoqlik ila mehmonlarga qaradim:

- Uy egalari - kattalar bor. Ular turganda biz qanday javob bera olamiz, jilla qursa, oldilaridan o'taylik?

Yodgorning katta togbəhasi tomoq qirdi:

- Albatta, ular ko'pruk. Ularsiz bitmas. Lekin biz siz kelguncha xo'b gapirushdik. Ular siza tashlashdu. - U iltijoli boqib o'tindi. - Sizlara ming rahmat, shuncha yil shuncha zamон qavatungizda olub o'tirubsiz. Gard yuqturmabsiz. Zoruqtirmabsiz. Lekin har narsaning ham cheki, chegarasu bor. Biz ham Allohnning oldida yuzshuvitlikdan qo'rqrarmiz.

Meni esa ich-ichimdan bir olov - norozilik olovi yondirib-kuydirib kelar edi: endimi?! Shuncha yil o'tibmi? Bungacha qaerda edingiz?

Ammo ularning mehmon degan nomlari bor, uyimizda o'tirishibdi. Dasturxonimizdan tuz ichib, non totigan joylari bor. O'zlariga yarasha gap qilmoq lozim. O'zimni bosib, issiq-issiq choy xo'plashga tushgan edim, qulfi-dilim ham ochila qoldi:

- Albatta, sizlarning bu o'tirivingiz, ularni daraklay-daraklay topib kelivingiz - katta gap, Alloh rozi bo'ladirgan ish. Har kim ham sarhad oshib, bu ishga jur'at etsin-chi! Dunyo turguncha esdan chiqmaydigan ish qilibsizlar oqibat ko'rsatib, - dedim, ketidan; - Lekin togbəjonlar, sizlar ham bizni tushuning, - deb uladim, - Biz kimnidir emas, jondan aziz akajonimizning omonati, ahli ayolini asrab o'tiribmiz. Bizniyam Allohdan umidimiz bor. Kutib yotibmiz yaxshi bir kunda uning kirib kelishini, - dedim.

Pochcha pishillab betimga qarab qo'yidilar. Aftidan, mening ogbəbzimdan bunaqa gaplar chiqishini yo kutmaganlar, yo ta'sirlanib hayratga tushib qolgan edilar.

- Qanuydi, qanuydi, - deb qo'ydi mehmonimiz ham. - Ammo umr ketyaptu. Ha-huv deb shuncha yil o'tub ketiptu. Ana, u kishudan qolgan tirnoq - jiyan ham er yetubdu. Albatta, har narsa Allohdan, Tangrumming xohlashu bilan. Lekin sarhad o'sha-o'sha berk, ochiluvidan darak yo'q. O'zumiz ham Olma-ota tarafdin bir amallab o'tub kelduk.

Men ichim yorishib, u kishiga qaradim:

- Ammo siz bu yoqdagi gaplardan xabar topganingizdam! - Kelib, ovora bo'lib yurmasdingiz, demoqchi bo'ldim. Kamiga: - Akam, uning do'stlari tinch o'tirishgani yo'q, - deb qo'shdim.

Mehmonlar bir-birlariga ma'noli qarab olishgan, pochcha esa, piyoladagi choyni bir xo'plashda bo'shatib, xontaxtaga bagbəirlarini bergen edilar:

- Subhanalloh! O'sha gaplarda jon bor degin hali? - dedilar u kishi.

- Bu taxmin bo'lganda ham u tomondan odam kelgani, meni topib, bularni surishtirib ketgani aniq. Hatto men akamga xat bitib berdim, - dedim chiniga ko'chib.

- Voy, seni, ichdan pishgan huvarini bolasi! Shuncha gaplar o'tib, miq etib qo'yamadingmi bizga?! Oy seni, voy seni! - Qo'llarini yoyib, chayqalgancha mutaassirlandilar pochcha.

- Shuginamas, - dedim men qulfi-dilim ochilib.- Olim akam Oltinxon to'ramning o'gbəllarini topib, kuni kechagina Turkiyaga

ketdilar, Yodgorni ham ola ketmoqchi edilar-u, ruxsat qoqibozolar bitmay qoldi...

- Ana bu - zo'r ish bo'pti! O'shanaqasi Sultonmurodni ham ko'rib keladi, rishtalarini ulab keladi. - Shu holda mehmonlarga yuzlandilar. B'TSizlar bularni hazil fahmlamang, hali hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Topishib-qovushib, tup qo'yib, palak yozib ketishadi.

Mehmonlar tinchlari o'g'birlanib joylarida o'tirolmay qolishgan, Yodgorning katta togibasi dam u, dam bu qulogibini ishqab-ualab menga termular:

- Shoshumang, mirzo, shu rostmu, kuyavimiznu daragi chiqqanu rostmu, - deb ijikilar, - bu yoqda shuncha gaplar bor ekan-ku, biz ne tashvushlara tushub yurubmiz?! Ogb'bzuzga bol, ogb'bzuzga bol, - der edi.

Shu tob eshik qiya ochilib, Yodgorning qorasi ko'zga chalingandek bo'lidi. Qarasam, rostdan ham o'zi - bir qadam chetga tisarilib turibdi. Ko'zim tushishi-la: "Amaqu, bu yoqqa qaravoring", degandek imladi.

- Menmi? - dedim qo'limni ko'ksimga nuqib.

U bosh silkib shivirladi:

- Siznu so'rashoptu...

Shu topda (sizga yolgb'on, Xudoga chin!) yuragim shuv etdi: kim so'raydi, kennoyimmi?.. Bo'shashib tushdim: chindanam nega u kishining oldidan bir ogb'bziz o'tmay, bularga javob qilyapmiz? Nima haqqimiz bor? Balki u kishi yurtiga uchib-qo'nib turgandir? Bir kun ham qolgisi yo'qdir bu yoqlarda?! Men nimani ham bilardim?!

Shu holda mehmonlardan uzr so'rab, chiqa boshlarkanman, na u kishidan, na oyimlardan so'ramaganimdan pushmonda edim.

Aslini olganda men kimman? Zimmaga olishga nima haqqim bor?! Uyni kattasi bo'lmasam, qozi bo'lmasam? Qolaversa, bu holda shariat nimani buyuradi - biz qaydan bilamiz?!

Chiqa eshikni zichlab berkitdim.

- Kim? Ayanglarmi? - dedim yuragim taka-puka bo'lancha.

Yodgor tili, chiroyi bilan kennoyimga tortgan bo'lsa ham (Alloh uni chiroydan qismay, qiz bola bo'lib tugib'ilishiga bir baya qolgan edi!), ziyaraklikda akamdan qolishmas edi. U qulogib'zini bering, degan kabi yelkamga yopishib kelib, shipshidi:

- Ayam... hujramizga berkinib olub o'tiribdular. Yigib'blayverub shishub ketubdilar.

Men shoshib qoldim:

- Chop, - deb qistadim unga, - borib ayt, o'zları nima desalar shu. Biz u kishini nomidan hal qilolmaymiz. Ixtiyor o'zlarida.

Shunday ekan de!

Yodgor xijolatlanib tisarildi.

- Yo'q, amagu, men buning uchun chaqurmadum. Eshikka xatchu keptu. Sizzi so'roptu.

- Nima? - dedim hayron qolib.

- Qo'l qo'yub oladurgan narsamush.

Men kennoyimning holidan ado bo'lgan edim, qo'l qo'yib olinadigan narsani eshitib, xushim uchdi:

- Shu tobda shu kam edi! - deb hovliga tushaverdim.

Zinadan tushib, darvozaxonaga chiqib borsam, qalam haqi olib kelib yuradigan xat tashuvchi. Men kim ekan, nima ekan, deb yuribman!

- Keling, opoy.

Oqsariqdan kelgan yumshoqzabon tatar xotin kumushbandli ko'zoynagini taqib, allaqanday uzun xat-gb'bilofni aylantirib, orqa-oldini ko'rmoqda edi. Meni ko'rib, shoshib qoldi:

- Iy, avara ettum. Buni kuring, Siza kichirasiz, imasmi?

Uzun ham chiroyli, xuddi kecha bosmaxonadan chiqqandek oq-oppoq xatgb'bilofning bezalishidan tortib, ramzlarigacha bir bo'lakcha edi. Ramzki, bir chekkasida hilol, bir chekkasida allaqanday hashamatli bino qubbasi ko'rindi. Chiziqlariyu bosma harflari - bir nazokatli. Qaysi imloda ekan, o'qolmadim.

- Qaerdan bildiz?- dedim opoyning sariqmayiz-dek tiniq yuziga qarab.

Opoy ko'zoynagini qo'liga olib, jilmaydi:

- Bulay xatlar bulak kimga-da kilar, jubargan igalarina qarang.

Shundagina ustiga qarab, xushim boshimdan uchdi. U chindan mening nomimgayu faqat manzil sanogib'ida adashgan edi.

- Uni qarang-a, menga ekan, - dedim dovdiranB-qirab, - Yaxshi olib kelibsiz, qaerlarda qolib ketardi, rahmat.

- Yuq, bu zakaznuy... Halu qo'l quyup birasiz.

- E, shunaqami? - deb bir qoqibozga qo'l ham qo'yib berdim. Lekin xayolim xatga qoqib, uning orqa-oldini o'girib ko'rardim-u, kimdanligini bilolmay sarang edim. Qurangki, undan birorta tanish nom yo belgi topolmasdim. Kimdan bo'lishi mumkin?

Opoy xayrashib ham ketdi, lekin biz g'b'taroyib xatgb'bilofning orqa-o'ngini tomosha qilishdan o'zimizni tiya olmasdik.

- Qattun ekan, amagu?

- Bilolmadim, - dedim rostiga ko'chib. - Ma, sen ko'r-chi, balki sening tishing o'tar harflariga.

U ko'rib turib, bir dikonglab qo'ydi:

- Ie, amagu, Turkiyadan-ku. Katta amaqum, Olim amaqumdan emasmu?

- Qaerdan bila qolding? - deb xatni uning qo'lidan tortib oldim. Bu gapdan o'zim ham bir hapriqib tushgan edim.

- Ana, To'pqopu. O'shaning ramzu. U Turkiyadan bo'lak qaerda ekan?

- Aqling balo! - dedim uni quchib ham suyub, keyin yelkasiga qoqib, - Shuniki bilibsan, tuf-tuf ko'z tegmasin, bizdanam uzoqqa borasan, - dedim sidqidil. Negadir men uni shu tobda akamga mengzab yuborgan edim. Shundanmi, ko'zlarimga jindek yosh ham kela qoldi, buni yashirgan kishi bo'lib, kuraklarini siladim. - Sen haqsan, Olim akamdan bo'lak kim ham bizga u yoqdan yozardi. O'zim esa, xatni ocharimni ham, ochmasimni ham bilmayman. Ochay desam, u yoqda pochcha, mehmonlar o'tirishibdi. Ochmay desam, ichim g'b'burmishlab yotipti: "U yetib bordimikan, akamni ko'rdimikan? Ko'rgan bo'lsa, qachon qaytadi ekan?" Bilgim keladiki, nar-yogib'i yo'q.

Balki opkirib, mehmonlarga ko'rsatish kerakdir? Suyunchi olish kerakdir?! Ularga bundan ortiq yana qanday xabar kerak?!

Shu tobda kallam o'qdek ishlab keta qolgan edi:

- Sen kir-da, ayangdan, oyimlardan suyunchi ol! Men mehmonlarga aytay, - deb Yodgorning kiftiga qoqdim. - Olim akam bekorga xat bitadiganlardan emas! Adangni topganki, yozgan. Chop! - dedim karomatgo'yligim tutib.

O'zim esa, shunday ekaniga zarracha shubha qilmasdim.

Qiyomatga qolmagan diydor yoxud Alloh rozi bo'ladirgan bir ziyorat

Maqsud, mening jondan aziz xolavachcham, ona o'rnida onalik qilib, boshimizni silagan bir kishining yolgbiz chirogbiyu ishongan bogib. Yolgbiz sen mening hozirgi holimni tushunishing mumkin, anglashing mumkin. Shu bois o'zingga yorilgim keldi, to'kilgim keldi. Yolgbiz sengina buni tushunasani. Boshqalar mingdan birini anglamasliklari, tasavvur eta olmasliklari mumkin.

Shuning uchun qaytib borgunimizga qadar sabrim chidamadi. Qolavursa, biz bu yerda jindek ushlanib turadiganga o'xshaymiz. Bu diyordashuvni tashkil etib, uyushtirgan turkiyalik birodarlarimiz - diyo-nat ishlari vaqfining xodimlari har ikki tomon uchun aziz kishilariga to'yib olmoqlari uchun bu diyorda yana biron hafta turib qoluvimizga imkon bermoqdalar. Bunaqa mehmono'stlikni, ota yurtdan kelib qolishibdi, deb azizlashlarini, boshga ko'targudek bo'lishlarini men shuncha dunyo kezib, hech yerda ko'rgan emasman.

Bular hammasi balki Oltinxon to'ram sharofatlari tufaylidandir. U kishini bu taraflarda pir darajasida ko'rib, azizlashar ekan. Qaraki, din Arabistonning qaqroq yerlariga tushibdiyu u bizning diyorlarda ushlanib qolgan ekan: o'z diyoriga sigbimagan Oltinxon to'ramdek bir mudarris bu diyorlarda shunchalar izzat-ikrom topib pir darajasiga yetibdilar. Aql bovar qilmaydi. Lekin biz, Maqsud, chin haqiqatni ko'rib turardik. Chindan barcha izzat-ikrom Alloh huzurida ekanki, uning yo'lini mahkam ushlagan darbadar bir vatanjudo qulini o'zining diyoridan yaxshi bir diyor bilan taqdirlab, ilgarigi izzatidan baland izzatlar bilan mukarram etibdi. Yuzlaridan nur yogbilib u kishini ko'rib, rostini aytasam, Maqsud, ko'ksim to'lib, bagbirim uzilib-uzilib yigbilib qilalarim keldi. Nahot shunday odamlar bizning diyorlarga sigbimasa?!

Uzr, Maqsud, muddaodan jindek ilgarilab ketdim.

Men senga avvalo, Turkiyaning Odana shahriga qanday yetib kelganimiz, bu yerdagi diyonat ishlari vaqfi xodimlari bizni qanday kutib olib, Saudiyadan yetib kelib, sabrsizlik ila kutib yotgan To'ramdek azizlarimiz bilan qanday uchrashdirib-ko'rishtirganlarini yozmogbim kerak edi. O'shanda barcha-barchasi tushunarli bo'lardi, oydinroq tasavvur etarding. Rostini aytasam, dunyo dunyo bo'lib, bunaqasini ko'rmasangdir.

Qolaversa, Maqsud, qiyomatda amallar taroziga qo'yiladirgan pallada tosh bosadigan yolgbiz amalim shu bo'lsa kerak. Esingga bo'lsa, bu - hov anavi Umarjon akaning tepasi yonida, hamma ko'chib-ko'chib ketib, yolgbiz o'zi qolgan, buzilayotgan uylardan nodir kitoblarni terib kelib, bir boloxona kitob yigbilib qo'yan Sutchining ishiga o'xshab ketyapti. U ham umrida yolgbiz bitta tosh bosadigan ish qilgan - otamizni surgun yeridan bermalol toat-ibodat qilish mumkin bo'lgan bir diyorga o'tkazib qo'yan edi.

Men u darajada jon hovuchlamagan bo'lsam-da, bu ishga savob umidida bosh qo'shganimdan o'zim terimga sikmay ketayotirman. Zora Alloh shu niyatimni o'sha kunda hisobiga olsa! Niyat ota bilan o'gbilni topishtirish edi, topishtirdik, Maqsud.

Bunaqasi kam bo'ladi. Barcha tingchilaru "qulqol"larni dogbida qoldirib, bunaqa uchrashuvni tashkil etish hammaning ham qo'lidan kelsin-chi! Kelmaydi. Kelishi uchun Alloh iroda etib, panohida saqlamogbibi kerak.

Shunday qilib desang, mezbonlarimiz borgan kunimizning ertasiga:

- Uzr, ota yurtdan kelmish azizlar, bu kun sizni bahavoroq otelga ko'chirgaymiz. Ma'zur tutgaysizlar bir yo'la olib bormaganimizga, - deb qolishdi.

Bordik.

Ular oldida Ovruposi ip esholmay qopti.

Shunaqa orasta, shunaqa osudaki, Maqsud, biz kamida bir asr orqada qolib ketgandekmiz. Bunaqa sharoitli imoratlar qurishimiz uchun diyor o'zimizga qolishi, biz dunyoga chiqishimiz, dunyoda tenglar ichida teng sanalishimiz kerak. Ungacha birov qaygiburmaydi bizga.

Xonalarga joylashib, yuvinib-taranib bo'lib edik hamki, bir piyola choyga deya qush sutidan bo'lak hamma narsa muhayyo etilgan stol yoniga nonushtaga taklif etishdi.

Men-ku bunaqasini ko'p ko'rghanman. Ammo esini tanib qishlogbidan narini ko'rmagan, daladan beri kelmagan hamrohim dovdirar, hech qovusha olmas edi. Bizda bir piyola choyni ham iloji bo'lsa, o'tirib-xotirjam ichadilar. Bu yerda ko'ngil tortgan narsani o'zi olib yeyish, yeganda ham tik turib tanovul qilish kerak edi.

O'ttizdan endi oshib-oshmagan hamrohim - To'ram diyordan hijrat etganlarida onasining qornida qolgan farzandlari bu taomillarga ko'nikolmay, ogbiziqiga ushoq solishdan ham tortinib turar, boyta aytganimdek, hech qovusholmas, o'zining bu holidan xijolatlarga tushib borar edi. Shuncha qistashimga qaramay, u choy ichmadi, choy uni ichdiyov.

Shu orada mezbonlardan biri kelib, hamrohimga sezdirmay, qulogbimiga shivirlay ketdi:

- Endi ul zotning ziyyaratlariga kirgaymiz, tayyormisizlar?

Men dabdurustdan anglamabman. Hovliqib qolib:

- Kimning huzuriga? - dedim.

- Pir to'ramni. U kishi sizlarni intizor-intizor kutadirlar, - dedi u.

Shundagina o'zimga kelgan edim:

- Unday bo'lsa, mozorbosdi sovgab-salomlarimizni olvolaylik.

- Yaxshi-yaxshi, ola kelishamiz, - deb bizga ergashdilar.

Yo'lakay hamrohimga shipshidim.

- Vatandan esdalik deb bervorishgan narsalarni olvolar ekanmiz.

U kelayotgan yerida bir cho'chib tushdi. Hatto to'xtab qoldi, desam to'gbiriroq bo'lar.

- Nima, ular shetta ekanlarmi? - dedi hayratga tushib. Uchrashuv joyi shu deb kutmagan ekan, dovdirab qolgan edi.

- Ziyyaratlariga chaqirishayapti, bardam bo'lavering. U kishi sizning padari buzrukvorungiz bo'ladiilar, - dedim yelkasiga qoqib.

- Siz... siz ilgaridan bilasizmi? - dedi u yuzlarimga termulib. Nega ilgariroq aytmadengiz demoqchi bo'lar edi u.

Men uni suyib, sekin bagbirimga tortib qo'ydim:

- Yo'q, ogbayni, - dedim yana ham yaqin olib, - dovrularini ko'p eshitganmiz, - orqasidan qo'shib qo'ydim. - U kishining ziyyaratlariga yetolmaganlar qancha, oshiqqanlar qancha. Ammo bugun u kishi sizni intizor-intizor kutadirlar. Axir tugbilibganingizdan beri ko'rmaganlar, to'gbirim? - Qarab tursam, bu gaplardan uning ko'zlar yoshlanib-yiltirab bor-yapti.

Yelkasidan quchib xonaga boshlay qoldim. - Yuring, yuraqoling, unday zotlarni mahtal qilmoq mumkin emas.

Mozorbstiga Arslonbobning asaliyu Quvaning anoridan, yana "churukchopon" deb atalmish qovunlar olvolgandik. To'nu sarupolarimiz bor edi. Barchasini ko'tarib, bizni dahliz atalmish, lekin xonning salomxonasidan qolishmaydigan bir xonaga olib

kirdilar. Sovgbəalarimizni qo'yib, yuraklarimiz potragancha kutib turibmiz, ichkariga xabar qilgani kirib ketgan diyonat ishlari vaqfining xodimi esa qaytib chiqqa qolmaydi.

Dunyoda yana shunday orziqib kutilgan bir boshqa ziyorat bo'lganini eslay olmayman, Maqsud. Ammo biz qay birimiz oldin, qay birimiz keyin kirarkanmiz deb, ichimiz tushib turarkanmiz, haligi tur birodarimiz ostonada ko'rini, imlab chaqirdi:

- Afandim, siz kiring, harna hazratim hovrdan tushsalar. Dilbandlarini to'sindan ro'baro' etmayluk, - dedi u shivirlab.

Men esam ul zotning huzurlariga qanday mujda bilan kelganimni bilsam-da, qanday sarupo yoxud diyordan esdalik ko'tarib kirarimni bilmasdim. Shoshib qolganimdan qo'limga ilingan narsani olvolibman.

Tanishtiruvchi turk birodarimiz xuddi xonning xudadchisidek eshikdan o'tiboq, ta'zimga egildi:

- Hazratim, diyordan mujdalar ila kishi kelmish. Muftiy janoblari ham To'ram taqsirning elchilari kirishga izn so'rilar...

Va men qo'limda bir shisha bol ila kirib bordimu xona o'rtasiga ham yetmay to'xtab qoldim. Ajab sinoat. Taxt misoli ishlangan (balki menga shunday ko'ringandir) yumshoq divanda lo'la bolishu par yostiqlar ichiga ko'milgancha Hizrdek nuroniy bir qa-riya - uzun yuz, cho'qqi soqolli mo'ysafid yonlariga engashgan kishining tushuntirishlariga some bir holda o'ltirar, yuzlaridan yogbəilayotgan nur o'sha chiroyli kuzalgan oppoq cho'qqi soqollaridan chiqarmi va yo boshlaridagi simobiq oppoq salladan taralarmi, ajratib bo'lmas edi. Kishi chehrasidan shunchalar tiniq, shunchalar oydin nur yogbəilishiga - aql bovar qilmas edi.

Ul zot yonlaridagi kishining tushuntirishi bilan qo'llaridagi hassaga tayanib tura boshladilar ham, men o'zim sezmagan holda oshiqib borib, tiz bukmoxqa va barlarini o'pmoxqa intildim. Salom bergenim ham esimda.

Ul zot chiroyli alik olib (hozir ham quloqlarim ostida turibdi u kalom: va alaykum assalomu va rahmatullohi va barakotuhi va solavatullohi alayh. Yanglishmasam shunday edi), o'zlarini chap qo'llari bilan qo'ltingbəimdan olib, turmoqqa ishora etardilar.

Qo'llari biram yumshoq, biram haroratli, uzmasalar derdim. Oxirgi marta Tangritogbəda shunday qo'l, shunday kaftga yo'liqqan edim. U ham bo'lsa, yo'qotib topganimiz eshon dadamizniki edi. Mana hozir shunga o'xhab, qarshimda go'yo rahmatli dadamiz turgandek edilar.

- Turing, o'gbəlon, yukunmoq nechun, biz ham banda. Bo'ylaringizdan o'rgilay, sizdan yurt bo'yłari ufuradir. Ruxsat eting, bagbərimga bosib to'yay, o'shal bo'yłara.

Men qo'limdag'i asaldonni hamsoyalarigami, kimga tutqizib ulgurib, o'zimni ul zotning ixtiyorlariga topshirdimu allaqanday yumshoq ham yoqimli bagbəriga singib bora boshladim. Faqat odam o'zini xirmonda, oftob nurlarini emib yotgan momiq paxtalar ichiga tashlabgina, yo bo'lmasa, onaizor bagbəriga yopishabgina shunday hislarni tuymogbəti, osmonlarda pardek uchib yurmogbəti mumkin edi, Maqsud.

Men shu holda edim. U kishi, ul zot esa bo'yınilarimdan iskalanib, Allohg'a hamdlar aytardilar:

- Allohim, o'zingga beedad shukrlar bo'lsin. O'zing yaratgan olamlar qadar hamdu sanolar bo'lsin, meni bu bo'yłara yetkarding, vatanim islarini ola kelgan o'gbəlonga yetkarding, O'zingga sanolar bo'lsin. Bu tan, bu jon O'zingga fidolar bo'lsin. Yetmasam nima qillardim?! Ko'zlarim ochiq ketarmi deb sahrlarda O'zingga yigbəlardim, mana, yetkarding, ijobat etding O'zing, - deb bo'zlardilar, bo'zlab turib, tasanno aytardilar Xudovandi karimga.

Men esam u kishining bagbərlarida bir yoqdan erib bormoqdaman, bir yoqdan esa, ajab tashvish bosib kelmoqda. Qarichilik - meni kim deb o'yladilar, dilbandlari deb bildilarmi - hoy, xudaychi, qaydasiz, degim keladiyu qani uni izhor etarga til aylansa. Yaxshiyam talvasaga tushib ulgurmadm.

Ul zot birdan ikki kiftimdan tutib, yuzlarimga boqqancha qoldilaru o'zlariga kelib, so'rab istashga tushdilar:

- So'zlang, o'gbəlon, bizga qanday salomlar, mujdalar keltirdiz? Ahllarimiz, dilbandlarimizdan ne xabarlar bor?

Hayriyat, adashuvdan qutulgan edim, o'zimni bir yengil his etdimki, bu turuvimizdan faqat farogbət tuymoqda edim. Endi Alloh izni ila til ham bita qolgan edi.

- Avvalo, muftiy janoblari bilan To'ram taqsir haqingizga duoda bo'lib, ko'pdan-ko'p salomlar yo'llab qolishdi, - dedim.

- Shundaymu? Alloh umrlarini ziyoda etsun. Raiyatning toleiga, vatanni toleiga ul zotlarni salomat etsun. Faqat faromushlik qursin, To'ram taqsirni tuzukroq tanitsangiz?..

- Tangritogbədan qaytmish Hoziq to'ram... ona tomondan o'zlariga tomir ekanlar, - deya oldim men yana qanday tushuntirarimni bilmay.

- Hay-hay-hay, ul zotmu? O'shal diyorda dorilomon bir yurt qurmoq bo'lgan To'rammu? Niyatlariga yetdim deganda, yana ajdaho komiga tushgan marshalimizmi? Yurti sarbonidan ayrilib bo'zlab qolgan, tengi yo'q mujohidimizdanmu? Alloh salomat etsun, taskin-tasallular bersun O'zi ul zotga. Qaytib chiqqaymikan yana ulardek bir zot?! Holimizni O'zi o'nglasin, ilohum!

Gap vatan ozodligiga borib taqalsa, ul zotni to'xtatib bo'lmas, bir xo'rlikmi, nima bosib kelib, qaltirab qoladilar ekan. Hozir ham, sezib-ko'rib turardim, ul zotning ovozlari titrab, o'zları bir holga tushib borayotib edilar. Hamsoyalar shoshib-la qolishdi.

Tirsaklaridan tutib, qo'ltilqlariga kirmoqqa urinar, joylariga o'tkazmoqqami, nimaningdir harakatiga tushib qolgan edilar.

Men esam nima qilarimni-da bilmay, xijolatlarga tushib borar edim. Haytovur, u kishi o'tirgan joylarida xirqalarining yeng uchini mijjalariga bosa-bosa, jindek xotirjamlanib, yana betimga savolomuz qaradilar. Ovozlar ham boyagindan hiyla qotgan edi:

- Ul zotlarning so'zlarini yerga tashlamay kelgan sizga-da Allohimning cheksiz marhamatlari bo'lsun. Ko'p mutaassir etdingiz.

Ayting, o'gbəlon, yana nelar keltirdingiz kamina huzuriga? Faqat yaxshilikdan, ezzulikdan so'zlang biz vatanjudo bechoralarga. Esim qursin, u kishi nima so'rardilar-u, mening esimga nima tushib, tilimga nima kelibdi!

- Taqsir, vatanni, uning bo'ylarini eslatsin deb sizga Arslonbob asalidan keltiruvdik, - deb boyagi asaldonni ola tiz bukancha qo'shqo'llab tutdim.

- Voh, shundaymu?! Qanday go'zal ish bo'ptu! Oh, Vatan bo'ylaridan o'zim o'rgilsam! - deb u kishi asaldonni qo'llariga oldilar-da, oshib bo'ylagancha turib qoldilar.

Qarasam, ich-ichidan ilohiy bir nur balqigan o'shal yuz-ko'zlarda gətalati bir jimirlov paydo bo'lib, mijjalarida shudringdek ikki tomchi yosh ko'rindiyu hech qancha ilinib turolmay dumalab tushib, o'shal oppoq cho'qqi soqollariga singib keta qoldi. Mendan bo'lak birov ko'rib-ko'rmayin ham qoldi.

Oh, Vatan bo'ylari shundoq ham aziz narsa ekanmi?! Ichimda bir narsa uzilib tushdimi deb o'yladim, Maqsud! Ko'zlarim tinib-la ketdi.

Ko'z ochganimda ul zot bolga botirilgan o'rtal barmoqlarini angishvonadekkina ogbəizlariga olib bormoqda edilar. Xonani esa, bol hidi tutib ketgan edi.

- Oh! Bol, degancha borsan o'zing. Dunyoning yana qay bir chekkasinda bundayin asal? Yolgbəiz jannatda topilsa mumkin, - dedilar ul zot. Keyin asaldonni hamsoyalariga tutdilar, - Oling sizlar ham, Vatandan bol kelibdir. Bolga qo'shib,- ul zot yana

menga o'girildilar, - yana nimalar keltirmishsiz?

- Ruxsat eting, ola kirsam, - dedim men o'nimdan dik turib.

- Shoshmangiz, - deb imo berdilar ul zot, - Siz bir boshdan ayting, ular opkiringaylar.

Men valakisalang, bul zotga manzur bo'larli, yana bir narsadan boshlashni istardimu qaysinisidan boshlashni bilmasdim.

- Aytovuring, bizga u diyorning azizmas narsasining o'zi yo'qdir?

- Eng aziz narsalardan... ya'nikim, Margb'Tilon behisi, - dedim hamon o'zimga kelolmay.

Olib kirdilar, sarigb'T oltindek sargb'Targan, piyoladek-piyoladek behilar shodasini.

Ul zot o'tirgan joylarida nurga botib jilmaydilar:

- Sallamno bo'l'sin, Allohgakim, faqat bizning diyorlarda o'stirib-bitdirib qo'yish bunday ne'matlarini. Yana, - dedilar u kishi, - bundanam bo'ydroroq, xushbo'yroq nima keltirmishsiz?

- Diyorning mashhurizamon "churukchopon"i...

Olib kirdilar sariq-ko'kish olovdek tovlantirib, o'tdan to'qilgan jildbogb'Tida osiltirib.

- Sallamno, sallamno. Nomiga-da, kishtikoriga-da, yetishtirgan egalariga-da. Qabul-qabul, - deb turib, yana boyagidek intiqlik-la so'radilar. - Yana-chi, yana?! Yana bizning boshimizni qanday ko'kka yetkurmakhchisiz?

Shunda Maqsud, vujudimga uyat olovi yugurib, yuzlariga zo'rgb'Ta boqdimu:

- Ma'zur tutgaysiz, biz faromushxotirlar- ni, - dedim o'zimda jur'at topib, - Boldan totluv, har narsadan aziz dilbandingiz turib, biz nimalarni kiritib o'liribmiz?! Ul taqsirlar siz uchun bu olamda har nedan aziz oilangiz, ahli ayolingiz, tomirlaringiz daragini topib, dilbandingizni yubormishlar.

Qarab tursam, ul zot eshik tomon allaqanday intiqib ham javdirab tikilib qolibdilar. Intizorlik shunchaki, ul dilbandning qorasini ko'rinsayu o'nilaridan turib keta qolsalar. Qanot chiqarib uchishga-da tayyorlar. Axir kim uchun shuncha yo'l bosib kelibdirlar?!

- Voh! Laysa kamislihi shay! Chindan O'zing xuva b'Tala kulli shayin qodirsan! - deb turib ketdilar bir mahal. - Diyorda bizning shunday qarchigb'Taydek o'gb'Tlimiz bor ekan-ku! Shularning muhabbatini ko'nglimga solib qo'yib, firoqida yondirayapti edimi O'zi?!

O'girilib qarasam, safardosh hamsoyam dovdirsov-dir kirib kelyapti. Padaribuzrukrori huzuriga yo'llab yuborishgani esidamiyo'qmi, xushi boshidan uchib, bu devonxonaga yigb'Tilganlarga bir-bir termulib ilgarilab kelarkan, hassalarini bilaklariga solib, quchoq ochgancha peshvoz chiqayotgan zotga ko'zi tushib, xushyor tortdiyu farzandlik mehri jo'shib, shu tomon intildi.

- Dada!..

Shu bir ogb'Tiz so'zdan butun devonxona, unda hozir bo'lganlar larzaga kelib, bo'gb'Tizlariga qaynoq bir nima tiqlgancha turarkanlar, ko'zlariga tirqirab yosh chiqqan edi.

Ayrliqning arimogs'i ana shunday bo'ladi ekan, Maqsud!

Firoqning so'nggi lahzasida kishi shu hol, shu alpozga tushadir ekan, Maqsud!

Alloh suygan bandalarini ana shunday ayrliq-judoliklar bilan sinaydi ekan, imtihonidan o'tkazib, o'ziga yaqin qiladi ekan, Maqsud!

Men Allohnинг hamma balo-sinovlariga dosh berib, chidab, o'ziga shukr qilib kelgan bir insonni - piri komilni ko'rib turardim, Maqsud! Ul zot shu pallada o'sha sabrлari evaziga ham Allohnинг yana bir in'omiga musharraf bo'lib turar, o'ttiz yil burun ona qornida qolgan dilbandlari bu kun qarchigb'Taydek yigit yetib, er yetib, ota bagb'Tida iskalanan edi.

Bu olamda mavjud o't-o'lanlar, dov-daraxtlar barglari addadi qadar hamdu sanolar bo'l'sin Yaratganga! Bu ziyoratga guvoh bo'lib turgan kishi borki, barchamizning ko'zlarimiz namlik, yuraklarimiz titrar edi. Vaholanki, bu qiyomatga qolmagan diydor yoshlar edi, Maqsud!

Shu tob o'zimda yo'q darajada mutaassirlanib, atrofga alanglarkanman, Maqsud, kimni ko'rib qoldim degin?! Qibla tomondagidagi eshikdan ikki-uch nafer odam kirib kelib turib qolishgan, ular orasi-da - kim deb o'ylaysan, Maqsud, osmondan tushgandek Sultanmurod akam paydo bo'lib, mendan ko'z uzolmay qolgan edi. Yo qodir Allah! Qanchalar chevarsan O'zing! Qay amalimiz xush kelib, bu kunga musharraf etding?! Biz jigargo'shalarni ham topishtirmaqni shu kunga, shu soatga iroda etganmideng?

O'zingga bu dunyoda olgan, oladigan nafaslarimiz addadi qadar hamdu sanolar bo'l'sin!

- Aka!!.

Yuragim yorilib ketmaganiga hayronman, Maqsud!

Ovozimdan devonxona oynalari jangillab ketgan, hamma - biz tomon o'girilgan edi. Biz ikki jabrdiyda - tirik turib yo'li ayro tushganlar bir-birimiz tomon yugura ketgandik.

Alloh barcha vatanjudolarga-da ana shunday diydor kunini ravo ko'rib, topishmoqni nasib etsin, ilohim.

Albatta, Oltinxon to'ramga-da, akamga-da atab olib borgan sovgb'Ta-salomlarimizni berib, to'nlarimizni kiydirib quchoqlashgancha toza yigb'Tlab-siqtashdik. Diyorni eslab, qavm-qarindoshlarni so'rab-istashib, ey yozilishdik. Dunyoda bizdan baxtiyor, Allah mukarram etgan kimsa yo'q edi.

Men bu tashrifni issigb'Tida, ichimga sigb'Tdirolmay, senga ilinib yozdim. Ko'pam iching tushmasin, borgunimcha shular yetar. Darvoqe, akamdan sizlarga mujda! Jondan aziz xolamlarga, Yodgorga, ayasiga aytib qo'yishing mumkin. O'shal qora-qura zanji kinochilarga qo'shilib borgan gung tasvirchi - o'zi ekan! Jur'atiga balli, o'sha yerga borib, o'zinikilarni ko'ribam miq etmay qaytibdi! Tanitmabdi! Mendek odam chidolmasdim, Maqsud!

Yana: akamning Yodgorga, uning onasiga, sizlarga atalgan mujdalari bor. Uni bu xatga qo'shmadim. Ko'z qoracho'gb'Tidek asrab o'zim bilan olib borgayman. Bizdan barcha so'raganlarga duo salomlarimizni yetkazib qo'ygaysan.

Xolamlarga, pochchaga ayt, namozlarida duolar-la so'rab tursinlar, toki ilohim, bizni siz azizlarning bagb'Tringizga eson-omon qaytarsin. Bu ulangan rishtalarini esa bir umrli qilsin. Omin.

Ko'rishguncha xayr deb,

Olim akang.

Turk diyori, Odana shahri".

Osmondan tushgan marvarid yohud omonat egasi

Uni qarang-a! Ana kuzu mana kuz!..

Men ishga otlanayotib edim, tashqariga ko'zim tushib, beixтиyor deraza tavaqalarini ochib yuboribman!

Yo'q, adashmagan edim. Ko'chadagi o'rigimiz usiz ham kuzgi kelinlik libosini kiyib ulgurgan, kungay barg-lari yal-yal tovlanib,

tonggi shabadada bir chiroylar parpirar edilar. Go'yo bu kecha son-ming sargibish kapalaklar yopirilib kelib, shu o'rigimizga qo'na qolishganu mana endi kun yuz ko'rsatishi bilan jon bitib, nozik-ado qanotlarini yumib-yoygancha o'zlarini oftobga solishar edi. Keyin ishga jo'nab ketib, uni tamomi unutgan edim. Kechga yaqin qaytsam... voh, o'sha jonivor "kapalaklar"!.. Hammasi yer bilan bitta - gilam bo'lib yotibdi! Ana sizga kuzu mana kuz!..

Yalt etib tepamga qarasam, vallohol-vallohol, qolgani ham bir olam - hech kamaymagandek edi! Qaytaga qir uchlari qizarib o'rik jonivor botayotgan oftob nurida boshiga zarro'mol tashlagan juvongami, kimga o'xshab qolibdi.

Subhanalloh! Yolgbiz Xudovandi karimning ishimasmi bu? Mana shuni aytadilar-da, xohlasa, yashnatadi, xohlasa, yer bilan bitta etadi deb!..

Bittalab terib olib, o'pgudek nozik-ado barglar gilamini aylanib o'tayotib, to'xtab qoldim. Qo'shni qizmi, kimdir o'sha yer bilan bitta suqsurdek barglarni bir chekkadan supira boshlabdiyu yana nimani o'ylab, supurgisini tashlab ketgan edi...

Turib-turib ichariga yuraverdim. Ammo hamisha yuziga yopiq turadigan eshigimiz nimagadir bugun ichkaridan berk edi. Tavba, uydagilar qayoqqa ketishibdi?

Eshikning kishi bilmas siri bor edi: tepe panjaradan qo'l suqib, darvozaxona fanerining gul-taxtasi sal ko'tarilsayoq, u o'z-o'zidan ochilib ketar edi. Chaqirib o'tirmasa ham bo'laverardi. Men ham o'shanday qilib, ochib kirib boraversam... qay ko'z bilan ko'rayki, pastki ayvon ostonasida birov - nega birov bo'lsin! - kennoyim yuzlarini bilaklariga bosgancha xun-xun yigbtlab o'tiribdilar.

Tizzalarida bir narsa oqarishib ko'rindi.

Ichim shigbt-gb etdi: xatmi?

Shungamikan, berkinib olib, ko'z yoshlari erk berganlari?.. Qaydan kela qolibdi u bir parcha xat?

Men qaytib chiqib ketarimni ham, kirib boraverishimni ham bilmasdum. Qaerdan ham bemahal kirib qolibman?!

- Voy, Maqsudxo'ja, sizmu?

U kishi yonoqlarini apil-tapil artgancha o'mnilaridan qo'zgbolar ekanlar, tizzalaridagi haligi narsa - ikkiga ajrab, biri sirgbalib, biri oq ukpardek uchib tusha boshladiyu kennoyim shoshib qoldilar.

Keyin bir harakat bilan ikkoviniyam tutib olib, yenglariga yashirmoqqa urinar ekanlar, men bir narsalarni anglagandek bo'lar edim. Nazarimda u kimdandir kelgan mujdaxatmi, nimadir ediyu kennoyim uni yero ko'kka ishonmay yashiradir edilar...

Yigbtlatgani uchun yashiradirlarmi, uyalganlaridanmi, ajrata olmas edim.

Qolaversa, u boyaqishginani bunchalar yigbtlatgan narsa kimdan ekanu nima haqda ekan?

Faqat boyagi o'tirnishlari - yuzlarini bilaklariga bosgancha xun-xun yigbtashlari... hech ko'z oldimdan ketmasdi.

- Nima bo'ldi, nima bo'la qoldi, kennoyijon?!- deb yugurgilab borayotgan joyimda u kishi menga bir olam xijolat ustiga... shunday suyunch, shunday iltijo bilan boqdilarki, to'xtab qolayozdim. Uni qarang-a! Hali bular hammasi sevinch yoshlari ekanmi, odam suyunchdan ham o'zini shunchalar yo'qotib qo'yomogbt, xun-xun yigbtlamogbt mumkin ekanmi?!

U qanday xat xabar ediki, odamni bunday yigbtatsa? Men qolib, endi u kishining o'zları talpinib kela boshlagan edilar.

- Oh, bilsangiz edu, Maqsudxo'ja, kimdan qandayun xabarlar yetganun?! U kishining o'zlaru nimu ishlar qilub ketganlarun?!. - deya ona oqqushdek talpinib kelib, ikki kiftimdan tutgancha yelkamga yopishib olsalar, esxonam chiqayozipti.

- Kim-kim, akammi, o'zlarini aytasizmi? Yana-mi? - derdimu oxirigacha anglab yetolmasdim.

U kishi, u mushfiqqa bo'lsa, o'ksilarini tutolmay, to'liqib to'liqib yigbtolar, kamiga yelkamga osilib, qaynoq ko'zyoshlari bilan kiftimni xo'l etib borar, ora-orada til-zabon bitib:

- Oh, Maqsudxo'ja, o'zlaru ekanlar-a! Bir ogbtuz sezdirub qo'ymabdular-a... Menman demabdular-a, - derdilaru yigbtidan chiqolmasdilar.

Men esam oxirigacha tushunib yetolmayapman. Xursandliklariniyam, armonda qolganlariniyam bilolmayapman.

Hadeb:

- Kim-kim? Kimni aytmoqdasiz? - deb qaytarib-qaytarib so'raymanu: - Yana qayoqdan kun chiqib, kela qochtilar? - deyman.

Axiyri kennoyim bir titranib, kiftimdan boshlarini uzdilaru:

- Oh, Maqsudxo'ja-Maqsudxo'ja, qayoqdan chiqar edu, biz kutgan tarafdan chiqdu! Alloh aziz qilgan taraflardan chiqdu! - dedilar to'liqib, Bilasizmu, kim ola keldu, Olum akangiz ola keldular daraklarin...

- Ie, u kishimi?!. Meni xayolim kimlarga ketibdi! O'zları qanilar, oyimgilar,bular qani? - deb surishtira ketdim.

Qarang-a, To'ramning iltimoslari bilan ketgan odam Oltinxon to'ramni surriyotlari bilan diydorlashtirib, kamiga yana qanday xabarlar bilan kelidi!

Shundan o'zlariga kelolmayaptilar, to'liqib boryaptilar ekanmi kennoyim?!. Shu davada mening gina xaltam ochilib keta qolgan edi:

- Bitta qo'ngbtiroq odamni o'ldiribdimi? Bildirib qo'ymaydilarmi, uchib kelardim...

Ammo u kishi bu ginamni gina sanamay Olim akani yoqlay ketdilar:

- Yo'q-yo'q, u kishi sizni ko'p so'rabs-istadilar. Keyin kichigoyimlarnu, bularnu olib ketdular. Tayun-lab-tayunlab ketishdu, borar ekansiz.

Shu gaplardan keyin ham qani hovrimdan tusha olsam!..

- Elburutdan uylariga chopmasalar... borardilar o'sha "polkovniklardan qolgan joylari"ga. Xolayu togbtalarimizni shu yerda ham kuta olardik.

Oh, kennoyim-a, sabrlari togbtacha bor, kennoyim-a! Shuncha ginalardan keyin ham Olim akamning tarafini olgandek, ro'mollarining uchini mijjalariga bosa-bosa... menga jilmayinqrab qarab turar edilar.

- Yo'q, Maqsudxo'ja, u kishi bir nimularnu o'ylab shunday qildular shekillu. Damini chiqarmayluk dedularmu...

- Balki, - dedim men ham bu fikrga qo'shilib. Biz Sulton akamizning daragi chiqqanini hali bayram qila olmaymiz. Yurtga osh berib, keyin javobini ham berib yuolmaymiz. Qancha gaplar ochilib ketishi, surishtir-surishtirlar boshlanib qolishi mumkin. Olim akamning ham bilgani-bilgan... Keyin javr-javr - kimga javr bo'ladi?! Shu kennoyimgami?! Undan ko'ra, bu narsani sal nari qilgani ma'qul-ku. Aslida ham Olim akam kimning iltimosi bilan ketibdi? U safarning o'zi ham sal imi-jimidaroq emasmidi, axir?

- O'zingiz-chi, o'zingiz nega bora qolmadingiz? Yolgbizdan-yolgbiz oltiribsiz, shunday kunda? - degandek qaradim.

Bu orada o'zlarini hiyla tutib olgan kennoyim yenglarining ichidagi narsaga endi iymanib xijolat aralash qarab qo'ydilar:

- Biz boyaqishlarga shu ham yetarlu... Olamnu olub bergenlaru ila barobar.

- Shuning o'ziga ko'nib qolaverdingizmi? - Shuncha yerdan mozor bosib kelgan odam shugina bilan kelibdilarmi, demoqchi bo'lardim. Kennoyim ham shu bir ogbtuz so'zdan o'zlariga kelib, shoshib qoldilar:

- Chindan ham... Siz shoshumang, men hozir, - degancha pastdagi uylariga qarab boraverdilar. Yo shu bahonada haligi birovga ko'ssatib bo'lmaydigan - o'zlarini esa, yig'blatgan xatni tashlab chiqmoqchi bo'lardilar, yo menga atalgan biror narsani eslab qolgandilar. Men esa, hamma narsadan ham burun, o'sha yeng ichidagi xatga intiq edim. Akamdan bo'lak kimdan ham bo'lishi mumkin?! Men hozir undan ayrib qolayotgandek, qaytib so'rav ham ololmaydigandek edim, nazarimda. Bu ham bo'lsa, akamning anuv sarhad oshib kelgan (Chaman akam topib, berib yuborgan) xatlarini haliga dovur ko'sratmaganimning jazosi, qaytimi- dek edi. O'zimga ham jindek alam qilayotgani shundan edi.

Bu orada kennoyim negadir paxta gulli choynak-piyola ko'tarib chiqa boshladilaru piyolada top-toza buloq suvini ko'rib, hayron qoldim. U nima bo'lsa ekan?

Hamisha siniq jilmayadigan kennoyim bu gal tamomi boshqacha edilar.

- Mana, Maqsudxo'ja, o'sha mozor bosub kelgan narusalarning bittasu. Olloh aziz qilgan o'sha diyornu suvi. Niyat qilub ichulgaykan, - dedilar u kishi meni taajjublarda qoldirib.

Men ham uni endi eslagan edim:

- Iya, bu o'sha To'ram taqsiр buyurganlarimi? U kishi atay ola keptilarmi? - deya oldim.

- Yo'q, akanguz... berub yuborubdilar...

Bu xabardan men chindan ham lol qolgan edim:

- Qanday, qaerdan bila qoptilar? - deb yuboribman, o'zimga kelganimda kech bo'lgan edi: dilimga kelgani tilimdan uchib chiqib ketgan, endigi pushmonimdan yer yorilmasdi...

Kennoyim yerga qarab siniq jilmaydilar. Lekin bu jilmayishning tagida g'hamdan ko'ra quvonch ko'proqqa o'xshar, ko'zlar ham chaqnar edi:

- Shifo so'rav ichsun, inshaalloh, ko'rмагандай bo'lub ketgay, deganmushlar...

Valloh-valloh, shunday deganmishmi, atay berib yuborganmishmi?!

Ana senga Sulton akang, mujohid akang! - derdi ichimdag'i mitti chol tilga kirib. - Kelib ketgani, ko'rib ketgani rost ekanmi?

Ko'rmasa, zamzam berib yuborarmidi?! Shifo so'rav ich, dermid?! Kelganki, ko'rganki, u dardlari ariyqolsin deb, berib yuborgan. Ana, ular qandoq ham bir-birlariga mehribonlar, yerus ko'kka ishonmaslar, derdi. Men bu so'z-bu hislardan ichim allaqanday toshib yig'blasim kelib borar, o'zimni qo'yarga joy topolmasdim. Vujudimga ham titroq kirganmi, qo'limdagi piyola omonatga o'xshab, ichidagi suv mavjlangandan-mavjlanib chayqalayotgandek, hozir o'zimni tutmasam, bir yonga og'bi to'kila ketadigandek edi.

Kennoyim esa qistar edilar:

- Olung, Maqsudxo'ja, faqat niyat qilub iching. O'sha Xojar onamiz buloqlariga bizlarnuda o'zi yetkazsun.

Men:

- Ilohim, ilohim, aytganiz kelsin, - dedimu ichib yubora qoldim. Oh, suv ham yutumi shunchalar yumshoq, o'zi tomoqqa tekkananoq chanqoqni oladigan bo'ladi mi ekan?! O'zimizning Izzani buloq suvlariga o'xshab, ichgan saring ichging kelaverardi, tavba. Yer ostidan chiqqan suv bunchalar yutumli, yumshoq bo'lmasa?! Odam bolasiga atalgani, Ollohnning marhamati ekan, O'zi chiqarib qo'ygani uchun ham shundaymikan?.. Men birinchi marta shunday xayollarga bormoqda edim. Nazarimda bu marhamatning hikmatini ham topgandek edim.

Kennoyim esa, yuzimga qarab, iltifot qillardilar:

- Yana bir piyolagina iching, Maqsudxo'ja?

- Rahmat, - dedim-u... o'zim yana bo'lsa yo'q demasdim. Ammo tortindim, axir akam nima uchun berib yuborgan?.. Shunga ham sherik bo'lamicmi?.. Rostini aytasam, shu bir piyola, suv bolaligimiz bilan birga yo'qlikka ko'chgan u Izza buloqlarini, akam bilan bu diyorda kechgan kunlarimizni yodga solib, sog'binchimni yangilab yuborgan, o'sha kunlarni qo'msatishta tushgan edi!

Qolaversa, Olim akam u tarafdan ola kelgan har bitta narsa menga aziz ko'rinish ketmoqda, ichim qurib bormoqda edi-yu, so'ray olmasdim. Ayniqsa, boyagi ko'rganim maktubga - akamning qo'llari tekkan, har so'zidan uning nafasi ufurib turguvchi xatiga shunchalar mushtoqmani, qani endi so'ray olsam, yetisha qolsam... Keyin kimsasiz bir uysa kirib olib, biqinib o'qiy ketsam.. Ammo uni bu mushfiqadan qanday so'rayman? Qolaversa, zamzam bahonasida ichkarigami, qaerga tashlab chiqqan bo'lalar?.. U kishi piyolani qaytarib olar ekanlar, yuzimdanmi, ko'zimdanmi, bir narsalarni sezgandayin bir qarab qo'yidilaru qayrila turib, to'xtadilar:

- Maqsudxo'ja, aytumoqchi anuv narusa... esungizdami? - dedilar yana ming bir istihola ila.

- Qaysi? - dedim garangsib.

- Ko'rpacha qatudan chiqqan-chu?

E-ha, u marvaridni aytaptilarni, uni unitib bo'-lar ekanmi?!

Bir kuni ishdan kelsam, oyim chaqiryaptilar:

- Hoy, Maqsudxo'ja, odam degan ham shunaqa ish qiladimi? Ko'rpacha qatiga nima qo'ygansan? - deb turibdilar.

Nima qo'yibman, hech eslay olmasdim.

Keyin eshitsam, yig'blib qo'yilgan ko'rpachalarni qoqib-suqishayotsa, ichidan shildirab bir shoda marvarid tushib kelayotganish. Shodaki, iplari zar, bog'bichlari tillidan, ko'rgan odamning og'bi ochilib qoladi emish.

Ko'rib o'zim ham hayronu lol qoldim.

Qaerdan kelishi, kim qo'yishi mumkin, aql bovar qilmasdi. Qancha bosh qotirib ham tagiga yetolmagandik. Keyin axir bir kun isi chiqib qolar-ku deb men uni hech kim topolmaydigan bir yerga - anuv parda ortidagi birov bilib, birov bilmas tokcha-tortmachamiz tagiga yashirib qo'ya qolgan edim. Shu vaqtgacha miq etmay yurgan kennoyim hozir o'sha osmondan tushganday paydo bo'lib qolgan marvarid haqida og'bi ochmoqda edilar. Uni qarang-a!..

- Xo'sh-xo'sh? - dedim ichichimdan bir hapriqish bosib kelib.

- O'shanu ham... bu kishi qolduran ekanlar.

- Yo'gb'e... - Bu endi aqlga sig'bdirib bo'lmaydigan narsa edi. - Qanaqasiga?

- Shunaqasuga... - dedilar kennoyim turgan joylarida to'liqa boshlab, boyaqishginaning qaroqlariga yana yosh quyilib kelib, ovozi titray boshlagan edi, - o'sha zanjular bilan kelganlaruda...

- O'sha qora-quralar bilan-a?! - Mening boshimdan olov chiqib ketgandek edi, ko'ksimga havomi nimadir yetmasdi. - O'sha gap, o'sha mish-mishlar rost ekan deng-a?!

Shu davada men ikki qadam tashlab, ushlab qoldimmi yo u kishi qo'llarida choynak-piyola, bo'shashib yelkamga o'zlarini tashladilarmi, o'zimga kelganimda yuzlarini yelkamga bosib, aytib-aytib siqtar edilar:

- Rost ekan, Maqsudxo'ja! Biz boyaqishlar hech narusaning farquga bormabmuz!.. Fahmuga yetmabmuz... U kishu suvratlarga tushurib ketubdilar. To'yub-to'yub ko'rib ketubdilar. Biz hech narusanu bilmabmuz. Bir ishora, bir belgu berub qo'yabdular hatto, - derdilar.

Men esam, u mushfiqani qanday yupatib, qanday tinchlantiranimni bilmayman, ichimdan esa bir olam narsalar o'tib bormoqda: "Belgi deysiz, mana shu marvarid-chi, u qaysi belgidan kam?!" degim kelyapti-ku tushov tushgan tilim yechila qolmaydi, o'zimga ovoz bita qolmaydi. Ammo bu voqeа rost chiqqanidan boshim osmonda: voh, mana buni akam desa bo'ladi! Hammасini dogb'ha qoldirib ketibdi, hatto sayyoh qiyofasida kelgan anuv vatanjudodan o'tib tushibdi! Chinakam Botur deb shuni aytadilar-da, derdim. Derdimu miq etolmasdim. Negaki yaqin olib, o'ziniki hisoblab yelkamga bosh urgancha bo'zlayotgan kennoyim mendan o'tib tushmoqda edilar:

- Eshityapsizmu, Maqsudxo'ja,- derdilar kuyib-pishib, - o'sha "mehmon" o'zlaru ekanlar. Kelubam bildurmabdular. Biznu ayab miq etmabdular. Alloh rozu bo'lsun, - deb bir yerga yetardilar.

Men esam:

- "Duoyu iltijolariz Xudoga yetgani shu, kennoyijon. Hali qarab turasiz, hammasi yaxshi bo'lib ketadi! Yo'llar ochilib, ko'rмагандек bo'lib ketasizlar. Shukr qiling, Alloh daraklarini chiqqanganiga. Olim akam borib ko'rib kelganiga. Mana bunday mujdalar keltirganiga, - deb taskin-tasallular bergim keladi-yu, ich-ichimdan bosib kelayotgan sevinch, xo'rlik, sogb'inch aralash bir hislarni jilovlay olmayman: - Hademay Allohnинг o'zi chegaralarni ochvorsa, bordi-keldilar mumkin bo'lib qolsa, nima deysiz? ! Akam o'gb'arincha emas, allaqanday qora-quralar bilan emas, ro'y-rost kirib kelsa, nima deysiz?! Axir Allohgа oson ekan-ku", - deya xonamga yugurib kirdim, pardalarni olib tashlab, o'sha birov bilib, birov bilmas joydagи омонатни olib chiqqim keladi-yu, joyimdan jilolmayman, qo'zgb'hololmayman. Faqat bir narsaga hayronman! U kishining o'zi-chi, nega tanib turib ham... bilib turib ham necha miq etmabdilar, hokisorlik shunchalik bo'larmi?

Shu davada:

- Shoshmang, men hozir, - deya bir qadam chekilib, uyimiz tomon burilmoqchi bo'lgan joyimda u kishi bosh to'lg'hab o'tinishga:

- Yo'q-yo'q, Maqsudxo'ja, qo'ying, tura tursun. Kichigoyum kelgunlaricha tursun, ovoza qilmay turayluk... - deb iltijo qilishga tusha ketdilar

- Xat-chi, zamzam-chi, ularni hammi? Endi bu narsalarni yashirib bo'ladi ekanmi? - dedim hayronlar qolib.

- Yashirub-ku bo'lmas, lekin ovoza qilish ham xayrB-lumikan? - dedilar u kishi.

Darvoqe, nima hayrli - o'sha Alloh rozi bo'ladiqan narsadir. Chindan ham, hozir sabrdan yaxshiroq, xayrliroq narsa yo'qdek edi. Shu tob... hali joyimdan jilmay turib... eshikka yengil mashina kelib to'xtab, ajabtovur musiqachalib, chaqira boshladi. Bunaqasi Olim akamning "Volva"sida ham yo'q edi. Tavba, kim bo'ldi ekan, deb chiqib borsam, qay ko'z bilan ko'rayki, tanish yashil "Jiguli"dan... boshida oq kepka, egnida oq hoshiyalari biram chiroyli, biram yarashgan zangori sportchilar kiyimida... Chaman akam tushib kelyapti:

- Xello, Maqsud mirzo! Haliyam sho'ttamisan? Olim kepti-ku, ziyyaratga o'tmaymizmi, axir?

- Assalomu alaykum. Nega o'tmas ekanmiz! O'tamiz. Akamni ziyyarat qilib kelgan odamni ziyyarat qilmaslik mumkinmi?! - dedim men quchoq olib bora boshlab.

- Uni qara-ya! - dedi Chaman akam o'sha-o'sha hazilkashligi tutib, - Sultonga kimlar intiq-intizor, kimlarning ko'zi teshilib yotibdi, Olim akang ko'rib kepti! Dunyoning teskariligidini ko'r!

- Nasib-da, nasib! - dedim men.

- Endi borib yermiz xasip, - dedi u.

Kulishib, quchoqlasha ketdik. Orqadan chiqib kela boshlagan kennoyim qay ahvolga tushdilar, men ko'rolmasdim.

Bir kunda shuncha xursandchilik, shuncha mujda! Bu yaxshi bir zamon, masrur kunlar kelayotganidan, anavi boyaqishlar ko'kragiga ham oftobu shamol tegajagidan yaxshi bir darak emasmikan? Qolaversa, akamning manavi jahongashta do'sti yana qanday xabarlar bilan keldi ekan? Bekorga qadam ranjida etmagandir?!

Shu tobda men undan bir narsani juda-juda so'ragim, bilgim kelib ketayotir edi. Sekin qulogb'Tiga shivirladim:

- Ayting-chi, akajonimiz qo'nim topgan diyorga bormoq osonmi, u yerdan kelmoqmi?..

Bu shunchalar sirli ediki, Chaman akam aftingga "Ha, quv", degandek qaradiyu u ham sekin bagb'Triga tortib, qulogb'Timga pichirladi:

- Xudo xohlasa, har ikkisi ham oson. Axir akang keb ketipti-ku. Endi kimning gali ekan? Navbat sizlarga-da.

- Yo'gb'e, rostdan-a? Behazil gapizmi? - deya aftiga tikilib qolibman. Shu temirqo'rgb'ondan biron yoqqa chiqib bo'larkanmi, demoqchi bo'lardim.

U ham bir qarashda meni tushuna qoldi. Tushuna turib, dabdurustdan yelkamga qoqib, sal o'ziga tortgancha jilmaydi:

- Akang yo'lini topganda sen topolmaysanmi? Senga osonroq-ku? - dedi atay mening jigs'imgami-gb'ururingami tegmoqchi bo'lib. Rostdan ham bu gap nafsoniyatinga tegib ketgan, o'zim to'msaya boshlagan joyimda uning bu gapi hazil ekanini fahmlab qolib, bo'shashdim:

- Hamma ham akam bo'laveribdimi! Unday bo'lolsak, jon-jon derdik-ku.

Chaman akamga bu gap nasha qilib, bexos bagb'Triga tortdiyu, quya qulogb'Timga yana boyagidan ketdi:

- Eh, pakana pari, pakana pari. Gazetda ishlayverib, to'ngib qopsan. Ko'zingni och, sen ishongan tollar allaqachon kesilishga kepqolgan, ich-ichidan chirib yotibdi...

Yo'gb'e, nahotki, degandek aftiga yalt etib qarasam, har baloga aqli yetadigan Chaman akam... o'sha-o'sha su-yib, jilmayib turibdi.

- Bir kun ertalab turib qarasakki, u qari tollar yo'q, ...shundaymi?

- Yo'q, - dedi u ma'noli boqib, - ortidan esa, chiroyli bir tong otib kelyapti - boqib to'ymaysan. Tushunding?! - dediyu shoshirishga tushdi. - Ketdik, ketdik, akangdek odamni ko'rgan safarchi keladiyu biz oyoqni qo'lga olib yetib bormaymizmi, uyat bo'lar, axir. Bordir bizga ham atalganlari...

Shuncha qistasak-da, kennoyim unmadiralar. Uyni yolgb'Tiz qoldirishga ko'zlar qiyamadi:

- Borarman keyinroq, menga boyagilar ham yetadi,- dedilar munigli jilmayib.

Chindan ham, endi nima ham akam berib yuborgan narsalardan o'ta olardi?!

Alqissa, o'sha Bo'zsuv bo'yidagi "polkovniklardan qolgan bogb'H"ga yetib, tanish hovli-joyga kirar ekanmiz, peshvoz chiqqan safarchini ko'rib, gangib qolgan edik.

Qay ko'z bilan ko'raylikki, qarshimizda Sulton akamizdek jussador, ko'z qarashlariyu bo'y-basti bilan, hatto yurishlari bilan akamga tortib ketgan bir odam - Olim akam quchoq ochib kelar edi. Vallo, vallo, Sulton akamning o'zini ko'rgandek quchoqlashib, yalashib-yulqashib ketdik. Xursandlikda bizga yetadigan odam yo'q edi. Undan akamning hidi, bo'ylarini tuyib, bir yerlarga yetar edik.

Ammo hammasidan Olim akam qo'yin cho'ntagidan chiqarib, menga uzatgan "mozorbosdi hadya" o'tib tushdi. U hov bir vaqtlar - bolaligimda tog'ham hadya qilgan narsaga juda-juda o'xshab ketmoqda edi. Bu ham o'shanga o'xshab, tigbi jimjiloqdek, o'zi bir qarichcha keladigan - sadaf bandli pichoqcha edi. Balki o'shaning o'zidir, o'sha pichoqchadir, degan xayollarga-da bormoqda edim.

Farqi - buning mo"jazgina qinchasi, yiltiroq qora ko'ndan tikilgan gbtifolchasiyu bejirimdan-bejirim shokilachasi ham bor edi. Qinmisan-qin. Yonga taqadigan belbogbtchasini aytmaysizmi, o'shani-da unutishmagan edi. Fil suyagidanmi, nimadan qilingan oppoq sadaf bandi esa, o'sha qindan chiqib turibdi.

Voh, nima bu? Qanday mo"jiza? Yo'qolgan narsalar osmondan tushgandek paydo bo'lib tursa? Yo akam berib yubordimikan?!

Ko'zlarim o'ynab ketganini ko'rgan Olim akam mayin jilmayib, yelkamga qoqdi:

- Sen avval ichini och, qindan chiqar. Kimdanligini bil.

Qo'lim titranqirab qindan chiqarsam, uchiga qadar shildiroq qogbbozga o'ralgan jippi pichoqcha.

- Och, och, - dedi Olim akam qistab.

Qogbbozini olsam, pichoqmisan pichoqcha. Naq, o'sha, hov bolaligimizda tushib qolmasin deb, kitob muqovasi ortiga yashirib yuradiganimdek, sadaf bandli mitti pichoqcha. Faqat bir yuziga uch kunlik nozik hilolu bir yulduz zarb etilib, tepasidan zarhal bilan nimadir yozdirilgan edi. Unaqasiga ham, bunaqasiga ham o'qiy olmadim.

- Ie, "Anvar mirzo", o'zlarimi ham tishlari o'tmadimi? Unda ko'fiy xatga ham tishi o'tadiganlarga bering. Ana, Chaman akangizga bering, - dedi Olim akam tegishib.

Shundagina chumoli izidek bu mayda yozuv arabiylar imloda, ustiga ustak, zer-zabarsiz ekanini anglab, qimtingancha qoldim. Chaman akam o'qidi. Qarangki, bitik arab imlosida bo'lsa ham, o'zi turkiy tilda edi: "Hammamiza suyukluv, hammamizdan o'zgukluv 1 pakana pariga".

Tanidim! U Sulton akamdan edi! Undan bo'lak hech kim bundoq yozmasdi ham, erkalamasdi ham!.. Tanidimu vujudimga shirin bir tuygbhu - bir jimirlov yugurib, ko'zlarimdan tirqirab yosh chiqib ketdi!

Rostini aystsam, bundoq yosh, bunday hislar ko'pdan mehmon bo'lmagan edilar. U yana uzoqroq davom etaversa, to'xtamasa, derdim. Sogbboz shishlari shunchalar shirin bo'ladimi ekan?!.

Men pichoq yuziga termular ekanman, akam atay yozdirib yuborgan haligi ikki ogbboz so'z tilimdan tushmas, go'yo dilimga muhrilanib qolgandek edi: "Hammamiza suyukluv, hammamizdan o'zgukluv..." O'zish tugul, ukasi degan nomga munosib bo'lolsak-chi avval!..

Shu bilan birga, yana allaqanday shirin hislar qamrab kelib, bu so'zlardan totli bir gbturur ham tuymoqda edimki... o'zim bilan o'zim bo'lib, hamrohlarimdan ortda qolib ketibman.

Bir mahal qarasam, ular hiyla narida to'xtab turibdilar. To'xtaganlari mayli, turishlari gbtalati edi, qo'rqqulik edi!..

Vallo, vallo, o'rtalarida qanday gap o'tibdiki, Chaman akam safarchini ikki kiftidan tutib, o'ziga qaratgancha... yuzlaridan ko'z uzmasdi. Hech kimga bo'y bermaydigan, qolaversa, durkun tortib ketgan Olim akam esa, shu holiga akajonisining ming yillik oshnasi oldida bo'yin egib, yer suzib qopti. Bir qur bo'lsa-da, uning ko'zlariga qarab qo'ymaydi. To'gbobirogbbi, qaray olmayotir. Yuragim shigbboz etdi: "Nima ro'y bera qoptiki, bunday turishibdi? Menden nimani yashirishgan ekan?!"

Menga qolsa, yugurib borib, ijikilab surishtirishdan ham toymasdim, ammo ulgurmadi. Olim akam bir nima dediyu Chaman akam bo'shashib, tusha qolgan edi.

U nimani qistab qo'yagan ediyu nimadan bunday bo'shashib tusha qoldi? Qolaversa, akamdan bo'lak kimni ham surishtirardi?!

Bu o'ydan yuragim to'kilgudek bir holga tushib, sekin boraverdim.

Chaman akam so'rardi:

- Xabarchilar-chi ularidan ham darak bo'lmadimi?

- Ikki xafka kutdik, - dedi Olim akam, darak tugul, javob kelmadi...

Ana xolos! Nega unday bo'libdi? Umrida lafzining ustidan chiqmay qolmaydigan akamga nima bo'libdi? Bu o'ydan kuragimda boshimga dovrur bir jimirlov yugurib, peshonamdan muzdek ter chiqib ketgan edi.

Xuddi shu lahzada nima bo'lib, Chaman akamning nigohi menga tushdiyu birdan o'zgardi-qoldi. Kutilmaganda Olim akamni yarim quchganicha ichkari boshlayverdi. G'alati hol edi: mezbon kimu mehmon kim, ajratolmay qolgan edim. Kamiga Chaman akam ovozini baralla qo'tib, unga taskin berardi:

- Shunga shuncha tashvishmi? Muhibimi, o'zini ko'ribsan, diydoriga to'yibsan, sovgbayu, salomlarini ola kepsan. Ortiq nima kerak? Qayta ko'risholmagan bo'l-sangiz, epini qilolmagandir-da. Muxojir odamga oson tutma. Qaytaga uzulgan rishtalarni ulab kepsan, qay o'ika, qay diyorlardan so'raramizni bilib kepsan! Shunga ham shukr, do'ppini osmonga otsang-chi! - derdi shantallab. Qarang-a, bir o'girilib kimga aylanib ulgurgan edi u.

Ammo ular mendan nimadir yashirishaytonga ham o'xshar edilar.

U nima ekan, suyukluv ham o'zgunluv ukalari - men hech narsa bilmasdim.

Uchinchi Kitob Bitdi

Jindek Izoh

Va niroyat, o'n sakkiz yillik ayriliqdan so'ng ota o'z farzandi-arjumandi ruxsoriga yetishib, mushfiq onaizorning kelinlik sepi tariqasidagi taqinchoqbbi - omonat ham o'z egasini topgan va shariat zammata yuklamasi vazifalarni o'tashga urinib qilingan sirli safar uddalanib, vatan sogbboz, yaqin jigarlar sogbboz jindek qondirilgan bir pallada "Judolik diyori"ning uchala kitobiga nuqta qo'ymoq ham mumkin edi.

Ammo Oltinxon To'ram farzandlarini ota diydoriga yetkazish asnosida jigargo'shasi bilan ko'rishishga tuyassar bo'lgan Sultonmurodning ketuningcha yana ko'tarishgaymiz deb "lafzining ustidan chiqolmagani - hikoyachiga ham, kitobxonga ham qorongbhu qolayotgani bois bu tarixni aniqlashtirishga to'gbobi keldi.

Aziz kitobxon. Dastlabki urinishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'lindi, judolik tarixi hali poyoniga yetmagan ko'rindi. Shu bois Sultonmurod taqdiriga doir hozircha muallifga ayon tarixlardan bir qismini to'rtinchi kitobning ilk bobi sifatida taqdim etishga

jur'at qildik. Alloh xayrli qilsin.

Uzr, diydor navbatdagi kitobga qoldi.

Muallif.

Sogb̄inch Diyori

4-Kitobdan Ilk Bob

Sadagb̄hang ketay Qora darvesh yoxud bemavrid chaqirilgan azon (Yolḡbiz muallifga ayon tarixlardan)

Kun tigb̄ha kelgan, o'sha lagb̄chaga aylangan kunning o'zi ham osmon toqiga mixlanib qolgandek edi. Uning zavolga ogb̄bishi, olov taftining qaytishidan bir belgi, bir sas berib, biron narsa qilt etsa-chi qani!.. Hatto vaqt to'xtab qolgandek. Soyalar-ku kichrayib borib, dov-daraxtlarning, qo'rgb̄bonlarning ortiga yashirinib olgandek, tosh-kesaklar tagiga kirib ketgandek. Go'yo olam Mahshargohga aylanib, quyosh ham pasaya boshlagandek bir pallada bu muazzam shahar ahli barcha yumushlarini tashlab, kim soya-salqin qo'rgb̄bonlariga, kim qorongb̄hilatilgan ichkari uylariga kirib ketganlaru butun shahar kimsasiz Madina-kentga aylanib qolgandek edi.

Yaxshi ham Olloham qaylulani chiqqagan, shahar ahli necha zamonlardan beri kunning mana shu pallasida boyagidek salqin joylariga kirib ketib, bir muddat mizgb̄biy ketadilaru yana asrga yaqin "tirilib chiqib", o'z toat-ibodatlarigayu tirikechiliklariga kirishadilar. Asr namozi ana o'sha qaylula shukronasiga o'xshab ketadi. Ana shundan keyingina Madina ko'chalarida bahri dilni ochadigan shabadalar yurib qoladi...

Ungacha hali pitcha bor. Bizga avvalgi kitoblardan tanish, qolaversa, shu asarlarning bitilishiga ma'lum ma'noda sababchi bo'lgan Bahriiddin birodarimiz ham hozir tijorat ishlarini bir chetga surib, ichkari uyda qaylulaga berilgan, shu topda tong-saharlardagidek tiniqdan-tiniq tush ko'rib yotar, qarangki, yana o'sha o'ksik bolaligiyo iqbol etagidan tutdim deganda ajrab qolgan diyorining dalayu qirlarida kezib yurar edi. Kezish nimasi, o'sha diyor shamollariga, qushlariga qo'shilib, shabboxun urar edi.

Umrining so'nggi kuni, so'nggi nafasiga qadar tushlariga kiraversa kerak o'sha diyor, o'sha o'ngida yetib bo'lmas go'sha. Balki so'nggi nafaslari bilan birga u bu vujudni, bu quvgb̄bindi ko'ngilning qa'rini tark etsa, jon qushi bilan qo'shilib chiqib ketsa ham ehtimol... Ungacha mehmon bo'lib kelaversa, o'rtayversa, jon qushini o'sha aziz go'shalarga yetaklayverib qo'ymasa, ne ajab? Tilimiz nega yolḡbonlab keladir, uni judolik diyor deb atab? U axir dil qa'rida yotmasa, jon qushi ila birga bo'lmasa, nega mizgb̄bidi deguncha ko'rinaraveradi, o'sha go'sha, o'sha diyorga yetaklayveradi?

Balki adoqsiz sirlaridan voqif qilmak lozim bo'lgan choqlarida u yana tushlariga oralab kirib kelaverib, uni yana nimalardandir ogoh etmoqchi bo'laverar?.. Ishqilib u o'shal aziz diyorning ko'm-ko'k bedapoyayu qir-soylarida yugurgilab yurar, goh qaybir tepalarda, goh qaybir adirlarda yuragini hovuchlab turib qolar edi.

Bu yoqda esa, bir gala ot ovlovchi chavandozlar har birlarining qo'llarida bittadan arqon-sirtmoq, hammalari bir ko'rksamdan-ko'rkam, uchqur otni, hali hech minilmagan salt bir otni har tarafdan o'rab kelishardi. Payt poylab turib, hurkak otning bo'yniga sirt-moq otib ilintirib olishsayu keyin qo'yib yuborishmasa. Ammo ish hali bunga yetganicha yo'q. Yaqinlashdilar deganda u shart qayriladiyu uzun, ko'hlikdan-ko'hlik bo'ynini bir yonga egib, yollarini hilpiratgancha chap berib, qochib qoladi. Keyin birontasi unga yeta olsin-chi, changida qolib ketadilar! U esa, narigi qirga o'tib borib, sekinlaydiyu atrof-javonibni jangillatib - shunday kishnab beradiki, bu kishnovdan yuraklar simillab oqishga tushadi. Simillagan sari gb̄burumi, nimadir qanotga aylanib, ikki kurakdan o'sib chiqqa boshlaydiyu u otni yana quvsalar bormi, unga qo'shilishib uchgisi, tutqich bermagisi kelaveradi.

Ot ham otmisian ot edi o'zi! Qirga yetib olib, tepada turishini ko'rsangiz! Bunaqasi ilgari ham tugḡbilganmikan hech? Go'zalligiyu ko'rksamligini ko'ring. To'rttal oyoqlari tizzasiga dovur oq-oppoq, peshonasida yulduz-qashqasi bor bunday ot har yuz yilda bitta tugb̄bilsa ham, mingtadan bitta chiqsa ham ajabmas. U chindan ham mingta ot o'rtasiga tushsa, ajralib turadigan otlardan edi, tanuqlidan tanuqli, ko'hlikdan ko'hlik jiyrongashqa edi.

Ot o'gb̄trilarimi, ishqibozlarimi, ishqilib sirtmoq tutgan abjir chavandozlar galasi shunchalar harislik bilan uni quvar, o'rovga olar, sirtmoq tashlar edilarki, biri bo'lmasa, biri muddaosiga yetib qoladigandek, Bahriiddinning nafasi ichlariga tushib-tushib ketardi.

Ammo har gal "o'ldi!" deya ichlari zimillab, ko'zlarini chirt yumib olgan mahal... yana ochsaki, jiyyron-qashqa Ollohnning qaybir inoyati bilan "quv-quv"lardan qutilib chiqib, ketayotgan bo'lar edi!..

Valloh-valloh! Bu ne hol, bu ne sinoat? Qachonga dovur bo'y bermay, qochib yura oladi ekan?! Bu "quv-quv"larda ne hikmat yashirin o'zi?..

So'nggi damda... birov xuddi Ka'batullohdagidek tiniqdan tiniq, cho'ziqdan cho'ziq azon chaqirib yubordiyu... Bahriiddin ("Iya, asr bo'lib ketibdimi" deya!) sapchib turib ketdi.

Keyin o'sha ichkarida, o'zlarining alohida tahoratxonalarida tahorat olib, yuvinib-taranib, birato'la namozga otlanib, xoji ko'yaklarini kiyib chiqib keldiyu ayolining hali ham tikuv mashinasi yonidan turmay, o'sha bir vaqtlar diyordan kiyib kelgan qarqib̄hashoyi atlas ko'ylagining etagini so'kib-choklab o'tirganin ko'rib... hayratlandi:

- Ha, onasi, müncha ixtimat qo'yib yo'rmamasang? Qizlaringga boshqa juftini topolmay o'tirmaylik, hali?

Margb̄hubonu eriga shirin jilmaydi:

- Ulariz o'zlar avvaldan tanlab bo'lishgan. Bu Fotimamizga. Zuhrangiz sariq atlas kiyadi emish.

- Unda ishim oson ekan. Men bunaqa ko'hna atlasni yana qaerden toparkanmiz, deb yuribman, - deb ketidan qo'shdi. - Yana bitta egizak tuqqaniningda bormi, onasi, bizdan badaylati bo'lmasdi bu Madinai munavvarada.

- Oling-a, - dedi ayoli yonoqlari kelin paytidagidek duv qizarib. - Shu davlatiz kammi, adasi? Xudoga shukr, hech kimdan kam emasmiz. Bahriiddin badaylat nomingiz bor.

- Shukr, shukr, mingdan-ming shukr, gap kelganda aytidim-da. Qizlaring anuv yangi karavotimizga joy qila qolishsin, - deb yura boshlagan joyida ayoli shoshqich o'rnidan turib, etaklariga ilashgan qiyqimlarni qoqishga tutingan kuyi uni to'xtatdi.

- Shoshmang, adasi, elburutdan qayoqqa otlanib oldingiz? Asrga erta-ku hali?

- Erta?.. - deb hayratlandi Bahriiddin. "Unda... azonni qaerden eshitdim? O'sha xovfimda ekanmi u ham?.."

- Erta-erta. Ana, soatga ham qarang, - dedi ayoli.

Chindan ham devordagi zarhal kaftgiri to'xtovsiz borib-kelayotgan soat millari asr vaqtiga yetishiga ancha bor, bu muddat ichida bir uxlab tursa yoki dunyonli ishini ado etib ulgursa bo'lardi.

Bahriiddin hech narsaga tushunmay kalovlandi: "Uni qara-ya... Unda bemahal yangragan azon - nimadan imdad ekan? Shaytoniy

desa, haramdagidek jarangladi: bu kalimalardan shaytonning o'zi tirqirab qochmogib lozim edi. Hovfida - o'sha ko'r kam jiyronqashqa yugurib yurgan qir-adirlarda yangradi ekanmi? Unda xatardanmi, nimadan darak bermoqda?.. G'alati, tushunuksiz hol edi. Bahriiddin qaytarini ham, chiqaverishini ham bilmay to'xtagan bir kezda ayoli nimanidir eslab, tokcha tomon yurdi:

- Darvoqe, adasi, Jiddadanmi, qaerdan diligram kelgan edi. Uygbotishga ko'zimiz qiymay, olib kirmagan edik, ko'ring, - deb xabarnomani olib uzatar ekan, qistadi, - birpasgina o'tira turing, jindek tolmachoy tayyorlay, maylimi?

Shoshqich azon-la turgbaziluv, undan avval mana bu telegrammaning kelishi... Qolaversa, dunyoda eng tanuqli, ko'r kam bir otning hech kimga tutqich bermay qirdan qirga oshib yurishi... Bularning hammasi nimadandir imdod beraru Bahriiddin ularni qanday ta'bir qilmoqni bilmas edi?

G'alati, juda ham gb'alati edi. U bir chetdagi oromkursiga borib o'tirishga sabri yetmay, turgan joyida teleogrammaga ko'z tashladi. "Bahriiddin badavlat birodarimizga: Moziydag'i "Buyuk muhojir" dan zo'rroq bir qahramon topgandekman. Yolgbiz o'zingga bir olam gaplarim bor. Anuv xizmatkoring - biz bilan yurtga borib qaytgan gung murobitni toptirib qo'ysang. Osmonimizga zibibircha bulut oralashini ravo ko'rmasman. Kordovadan qaytgan birodaring. Qora darvesh".

- Ana xolos, - deb yubordi Bahriiddin.

Qiziq. U Sultonmurodning kimligini bilmasdi-ku? Jo'nab ketgach qaerdan xabar topibdi? Nega, qaerdan murobit deb atamoqda? Yana topdirib qo'y degani qiziq!.. Yolgbiz o'zingga bir olam gaplarim bor, degani-chi? Xavotirli bir gap o'tmagan bo'lса, telegramma berib yurmay - to'gbiz kelaversa bo'lardi-ku?!

Demak, o'rtada bir gap bor! Behuda chopib kelayotgani yo'q.

Uni rostakam vahm bosib kelib, turgan yerida "qul a'uzu" ni takrorlab, Ollohdan panoh so'ragan bo'lidiyu telegrammani deraza yonida qoldirib, telefon daftarchasiga yopishdi. Unda Sultonmurod xolavachchasing xos telefonlaridan tortib, barcha shaharlardagi jamiyat telefonlarigacha bo'lishi kerak. Avval o'ziga ulanib ko'rishga harakat etdiyu bir vahimasiga o'n vahima orttirib oldi. Har gal stantsiyadan bir xil javob bo'lar edi: "janob telefon raqamlarini o'chirib qo'yanlar, yo chegaradan tashqarida bo'lislari mumkin".

- Qaerda bo'lishi mumkin? - Bahriiddin u bilan bir hafta oldin gaplashganini, undan keyin hech ulanmaganini esladi. O'shanda "Olimni ko'r dim. To'ramning surriyotlarini diydorlashtirgani ola kepti. Senga, xonadon ahllaringga xeshu aqrabolamizdan bir olam salom keltiribdi. Qaytishda albatta, kirib o'taman. Ungacha ichikib qolma, deb sim qoqdim. Alloh ko'rishtguncha", deb edi. Mana endi ulanmay o'tirsa...

Balki biron shoshqich ishi chiqib, jo'nab ketdimi, deya Bombeydag'i idorasiga ulandi.

- Assalomu alaykum va rohmatullohi va barokotuhu, - deb salomlashdi kotib janob.

Bahriiddin alik olib, o'zini tanishtirdiyu birodarini so'radi:

- Mumkin bo'lса, ulab yuborsangiz, - dedi umidla. Ammo kotib boyagidan ham tavozi bilan:

- Janob o'sha taraflarda safardalar. Biz sizga oson ulanish raqamini aytma olamiz. Marhamat, yozib oling, - dediyu Bahriiddin biladigan raqamni qaytardi. Bu o'sha - qo'l telefon edi.

Bahriiddin bir ko'ngli ulanmayotganini aytmoqchi bo'lди-yu, hali yo'q narsaga ularni ham xavotirga qo'ygisi kelmadi. Endi yolgbiz umid - Oltinxon to'ramdan edi. Hech kim bilmagan taqdirda ham u kishi Sultonmurod qaerdaligini bilishlari kerak. Ular safarda ko'rishgan bo'lislari kerak.

Bahriiddin shu umidda To'ramning madrasadagi oliy dargohlariga sim qoqdiyu u zot safardan qayta turib, qarichilik - jindek urinib qolganlarini eshitib, o'zlariga ulanishga jur'at etmadni.

Endi yolgbiz yo'l - To'ramni ziyyoratlarga o'tish qolgan edi. Shu bahona so'rash mumkin, undan beriga bezovta etish adab doirasiga sigb'masa ham kerak?!

Bahriiddinning quvvai hofizasi ham, aqli ham o'qdek ishlasa-da, bundan to'gbiriroq yo'l ko'rmas edi. Axiyri ichkarida o'tira olmay tashqariga chiqib ketdi. U xurmozor oralab kezinar ekan, Qora darveshni o'ylab:

- Kelsa, kela qolmaydimi? Jiddadan chiqqan odam allaqachon Madinaga kirib kelishi kerak edi-ku, - deb tashvishlanib borar, bunaqa vaqtida zikrga berilish lozimligi yodiga kela qolmas edi.

Shu asno Zuhra qizi:

- Adajon, ayajonim choyga chaqiryaptilar, - deb chiqib qoldiyu u qizlarini toshkanchasiga "oh, mo'moch qizlarim, po'poch qizlarim, baraka topinglar, ona qizlarim", deya erkalab kirib boraverdi, ammo ichida gburmishlagan narsani hech unutolmasdi, hatto karavotga qilingan bir chiroyli joylar ham, shakarob berib suv sepilgan, salqin ufurayotgan ichkari hovlining o'zi ham uning ko'ziga ko'rinnmayotgan edi...

Hayriyat, bir piyola choy ichar-ichmaslaridan xabar kirdi:

- Xojam, xabashistonlik birodariz huzuringizga kirishga izn so'raydir. O'sha boshi mushtdek, o'zi gungursdek odam...

